

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT INSTITUTI

XALQ IJODIYOTI FAKULTETI


“MADANIYAT VA SAN'AT MUASSASALARINI TASHKIL ETISH VA
BOSHQARISH” KAFEDRASI

**Madaniy – ma`rifiy muassasalarda nomoddiy madaniy meros
targ`iboti mavzusidagi**


BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajardi: “Madaniyat va san`at
muassasalarini tashkil etish va
boshqarish” ta`lim yo`nalishi bitiruvchi 4
kurs talabasi

Volodina Veronika Vladimirovna


(imzo)

Ilmiy rahbar: “Madaniyat va san`at
muassasalarini tashkil etish va
boshqarish” kafedrasining katta o`qituvchisi
X.X.Shodiyev



Bitiruv malakaviy ishi kafedradan dastlabki himoyadan o`tdi. Kafedra
majlisisning 26 sonli bayonnomasi “17” may 2018 yil

TOSHKENT-2018

Bitiruv malakaviy ishi himoyaga tavsiya etildi

“Xalq ijodiyoti”
fakulteti dekani
J.Mamatqosimov

“Madaniyat vas an’at muassasalarini
tashkil etish va boshqarish”
kafedrasi mudiri

B.Salaydinov

“ 14 ”  20 18 yil

“ 12 ”  20 18 yil



MADANIY-MA'RIFIY MUASSASALARDA NOMODDIY-MADANIY MEROS TARG'IBOTI

KIRISH.....2

I BOB. Nomoddiy madaniy meros tushunchasi va madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari

1.1. Nomoddiy madaniy meros tushunchasi va uning namoyon bo'lish sohalari.....6

1.2. O'zbekistonda nomoddiy madaniy meros bilan shug'ullanuvchi madaniy-ma'rifiy muassasalar.....16

II BOB. Nomoddiy madaniy merosni targ'ib qilishning huquqiy asoslari va istiqbollari

2.1. Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, asrash va targ'ib qilishga qaratilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar.....

2.2. Nomoddiy madaniy merosni targ'ib qilishda innovatsion yondashuvlar.....

XULOSA.....

GLOSSARIY.....

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....

ILOVALAR.....

**“Bir haqiqatni hech qachon
esimizdan chiqarmasligimiz kerak,
mamlakatimizda madaniyat va san’at
taraqqiy etmasa, jamiyat
rivojlanmaydi”**

SH.M.MIRZIYOEV

KIRISH

Mustaqillik xalqimizning ma’naviy qadriyatlari, madaniy merosi, milliy an’analarini va uzoq tarixga ega bo‘lgan san’atimizni saqlab qolish, asrab avaylash hamda uni yanada rivojlantirishva jamiyat taraqqiyotiga xizmat qildirish uchun ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar yaratib berdi. Jahonshumul tarixiy bunyodkorlik ishlarini olib borayotgan davlatimiz rahbariyati o‘tish davri islohotlarining nafaqat iqtisodiy masalalari bilan cheklanib qolmasdan, balki har qanday qiyinchiliklarga qaramay istiqlolning dastlabki kunlaridanoq ko‘p asrlar davomida xalqimiz tomonidan yaratib kelingan milliy madaniyatimizni asrab – avaylash va uni yanada rivojlantirish masalalariga ham alohida e’tibor qaratib kelmoqda. Xususan, ushbu sohani yanada rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan bir qator qonun va qarorlar qabul qilindi. “Nomoddiy madaniy meros muhofazasi to‘g‘risida”gi xalqaro Konvensiyaga qo‘shilishimiz, “Madaniy meros ob’ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni, Vazirlar Mahkamasining “2010-2020 yillarda nomoddiy madaniy meros ob’ektlarini muhofaza qilish, asrash, targ‘ib qilish va ulardan foydalanish Davlat dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 222-son qarori hamda “Nomoddiy madaniy

meros muhofazasiga oid normativ huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 47-son qarorining qabul qilinganligi buning yorqin misoli.

Madaniy-ma'rifiy muassasalarning bu borada olib borgan izlanishlari va sayi-harakatlari tufayli O'zbekistonning yettita durdona merosi YUNESKOning nomoddiy madaniy meros ro'yxatlariga kiritildi. Jumladan, Boysun madaniy muhiti (2008 yil), Shashmaqom (Tojikiston bilan birgalikda, 2008 yil), Katta ashula (2009 yil) va Navro'z (Ozarbayjon, Hindiston, Eron, Qirg'iziston, Pokiston va Turkiya bilan birgalikda, 2009 yil, mazkur davlatlarga yana Tojikiston, Afg'oniston, Iroq, Qozog'iston, Turkmaniston ham qo'shilgan yangilangan tarkibda, 2016), Askiya (2014 yil), Palov madaniyati va an'analari (2016 yil) hamda "Marg'ilon hunarmandchilik maktabi: atlas va adras to'qish texnologiyasi" (2017 yil) ushbu ro'yxatdan o'rin oldi.

Vazirlar Mahkamasining 222-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat dasturi ayni paytda ijroda. Mazkur dastur 57 bandan iborat bo'lib, uni ijro etib borish uchun 38 ta mas'ul tashkilotlar biriktirilgan.

Mavzuning dolzarbligi. Hech kimga sir emaski bugungi kunda butun dunyo globallashuv jarayonini boshdan kechirmoqda. Fransuz tadqiqotchisi B.Bandi bu haqida shunday degan edi: "Globallashuv-milliy chegaralarning yuvilib ketish jarayonidir". Mazkur jarayon sabab dunyo miqyosida madaniyatlarning umumlashuvi – olomon madaniyati xavf solib turgan bir paytda urf-odatlarimiz, marosim va udumlarimiz haqida so'z yuritish hozirgi kunda dolzarb masala bo'lib turibdi. Shuningdek, hozirda nomoddiy madaniy meros atamasi bilan qo'llanilayotgan xalq ijodiyoti namunalari asrab-avaylab, kelajak avlodga yetkazish, xalqimiz, ayniqsa yoshlar orasida ushbu merosni ommalashtirish va targ'ib etish ham oldimizda turgan muhim vazifamizdir. Bu borada respublikamizda faoliyat olib borayotgan madaniy-ma'rifiy imkoniyatlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Mazkur mavzu hali ilmiy jihatdan aynan to'liq tadqiq etilmagan mavzular sirasiga kiradi. Bugungi kunga qadar aynan ushbu mavzu yuzasidan adabiyotlar yoki risolalar nashr etilmagan. Ammo, mavzuning bir qismini tashkil etuvchi nomoddiy madaniy yuzasidan bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan va bitiruv malakaviy ishlar yozilgan. Hozirda Respublika madaniyat muassasalari faoliyatini tashkil etish ilmiy-metodik markazida nomoddiy madaniy meros bilan shug'ullanadigan maxsus bo'lim tashkil etilgan bo'lib, bo'lim tomonidan monitoring ishlari olib borilib, tegishli uslubiy qo'llanmalar, to'plamlar va tavsiyalar ishlab chiqilmoq. Shuningdek, ushbu yo'nalishni yanada chuqurroq o'rganish maqsadida respublika bo'ylab ilmiy ekspeditsiyalar uyushtirilmoqda.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy va amaliy ahamiyati. Ushbu tadqiqot natijasida Madaniy-ma'rifiy muassasalarda nomoddiy madaniy merosni targ'ib etish ilmiy jihatdan tadqiq etiladi hamda mazkur merosni xalqimiz, ayniqsa yoshlar orasida targ'ib etish usullari va yo'llari aniq dalillar asosida ochib beriladi. Bundan tashqari ushbu tadqiqot ishida targ'ibotning innovatsion loyihalari amaliyotga tadbiiq etish uchun taklif etiladi. Bu esa yurtdoshlarimizning nomoddiy madaniy merosga bo'lgan qiziqishlarini yanada ortishiga xizmat qiladi.

Bitiruv malakaviy ishning ob'ekti va predmeti. Tadqiqotimizning ob'ekti bugungi kunda respublikamizda faoliyat olib borayotgan davlat va nodavlat madaniy-ma'rifiy muassasalardir. Ularda nomoddiy madaniy merosni targ'ibotini yo'lga qo'yish, uni yanada rivojlantirish, bu borada innovatsion yondashuv ishimizning predmeti hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari. Nomoddiy madaniy merosni madaniy-ma'rifiy muassasalarda keng targ'ib etish tadqiqot ishining maqsadi hisoblanadi. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni bajarish talab etiladi:

- Respublikamizda mavjud madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyati va imkoniyatlarini o'rganish;
- Mazkur muassasalarda targ'ib etiladigan nomoddiy madaniy meros yo'nalishlari va namunalarini aniqlab olish;
- Nomoddiy madaniy merosni targ'ib qilishda zamonaviy va innovatsion yondashuvlardan foydalanish;
- Nomoddiy madaniy merosni targ'ib qilishga qaratilgan to'garaklar tashkil etish;
- Yo'qolish arafasidagi nomoddiy madaniy meros namunalarini aniqlash hamda ularni zudlik bilan muhofaza ostiga olish choralarini ko'rish.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibi va hajmi. Ushbu ish ikki bob, to'rtta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat.

I BOB. Nomoddiy madaniy meros tushunchasi va madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari

1.1. Nomoddiy madaniy meros tushunchasi va uning namoyon bo'lish sohalari

Mustaqillik sharofati bilan nomoddiy madaniy merosimiz ham qayta tiklandi. Mazkur atama keyingi yillarda paydo bo'lgan bo'lsa-da, biroq uning mohiyatida, tub ildizlarida xalqimizning og'zaki ijod namunasi sifatida qarab kelinayotgan qadimiy folklor hamda milliy hunarmandchilikka oid bilim va ko'nikmalar, odat, marosim, bayramlar, shuningdek, ijro san'ati namunalari yotadi. Bu tushuncha sohaga aylanib bugun dunyo bo'yicha e'tirof etilayotgani — globallashuv jarayoni bilan bog'liq. Dunyo miqyosida madaniyatlarning umumlashuvi — olomon madaniyati xavf solib turgan bir paytda har bir xalq urf-odatlarini, marosim va udumlari haqida so'z yuritishi hozirgi kunda dolzarb masala bo'lib turibdi. Buni his qilgan xalqlar hozirda o'z milliy xususiyatlari va merosini saqlab qolish, uni muhofoza qilish va kelajak avlodga yetkazish borasida keng ko'lamli kurash olib bormoqda. Xususan, YUNESKO 1990 yillardayoq Insoniyat nomoddiy madaniy merosini muhofazaga olish taklifi bilan chiqdi. Mazkur tashkilot shu bugungacha moddiy merosni muhofaza qilish borasida Konvensiya va konsepsiyalar ishlab chiqqan bo'lib, nomoddiy meros bo'yicha ko'tarilgan taklif bu sohadagi ilk qadamlardan bo'ldi. YUNESKO 2001 yilda nomoddiy madaniy meros ta'rifini kelishilgan holda ishlab chiqish maqsadida a'zo davlatlar va nodavlat tashkilotlari o'rtasida so'rov o'tkazadi. Maxsus bir ta'rifga kelishilgach, 2003 yil 17 oktyabr

Parij shahrida Nomoddiy madaniy meros muhofozasi bo'yicha Konvensiya qabul qilingan.

Davlatimiz ham 2008 yili ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilib, unga a'zo bo'ldi. Shu munosabat bilan nomoddiy madaniy meros masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 7 oktyabrdagi 222-son qaroriga asosan *2010-2020 yillarda nomoddiy madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish, asrash, targ'ib qilish va ulardan foydalanish Davlat dasturining qabul qilinishi o'ziga xos tarixiy voqea bo'ldi.* Ushbu dasturni ijro etish maqsadida esa respublikamizning 38 tashkilot va muassasalari birlashtirildi. Xalq ijodiyoti va madaniy-ma'rifiy ishlar respublika ilmiy-metodika markaziga davlat va nodavlat tashkilotlarning nomoddiy madaniy meros masalalari bo'yicha faoliyatini muvofiqlashtiruvchi muassasa maqomi berildi.

Bu tushunchaning tub mohiyatini anglash uchun moddiy va nomoddiy madaniy meroslarning o'zaro farqini bilib olish maqsadga muvofiq. Davlatimizning "Madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi qonunida belgilanganidek, "**Moddiy madaniy meros** — tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o'zgacha madaniy qimmatga ega bo'lgan ansambllar, diqqatga sazovor joylar va yodgorliklardir.

Nomoddiy madaniy meros esa tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o'zgacha madaniy qimmatga ega bo'lgan urf-odatlar, xalq ijodiyoti (so'z, raqs, musiqa, tomosha san'ati), shuningdek, xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'ati bilan bog'liq bilimlar, ko'nikmalar, asbob-anjomlar, artefaktlar, madaniy makonlardan tashkil topgan."¹

YUNESKO Konvensiyasining 2-moddasida esa nomoddiy madaniy merosga quyidagicha ta'rif berilgan: "Nomoddiy madaniy meros" hamjamiyatlar, guruhlar va ba'zi hollarda alohida shaxslar tomonidan o'z madaniy meroslarining bir qismi sifatida tan olingan odatlar, taqdim va ifoda shakllari, bilimlar va ko'nikmalar,

¹ Ўзбекистон Республикаси қонуни "Маданий мерос объектларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланиш тўғрисида" 3-модда

shuningdek, ular bilan bog‘liq asbob-uskunalar, predmetlar, artefaktlar va madaniy muhitni bildiradi.

Yuqorida keltirilgan ta’riflardan xulosa shuki, demak, mazkur tushuncha tarkibiga kiruvchi barcha namunalar qadim o‘tmishdan to hozirgi kungacha avlodan-avlodga o‘tib kelayotgan jamiyki xalq ijodining aynan o‘zidir. Boshqacharoq aytganda, xalqqa tegishli ma’naviy meroslar majmuini shartli ravishda nomoddiy madaniy meros deb atash mumkin. Konvensiyaga muvofiq bo‘lishi hamda jahon standartlari talabiga mos kelishi uchun davlatimizda ham mazkur tushuncha joriy qilindi.

Nomoddiy madaniy merosning nomoyon bo‘lish sohalari. Xalqaro normalarga muvofiq nomoddiy madaniy meros 5 ta sohada namoyon bo‘lib, ularning mazmuni quyidagicha:

1.O‘zlikni namoyon qilishning og‘zaki shakl va an‘analari yo‘nalishi xalq og‘zaki ijodiyoti bilan bog‘liq barcha janrlarni o‘z ichiga oladi. Bu sohaga ajdodlarimiz va zamondoshlarimiz tomonidan ijod qilingan miflar, afsonalar, rivoyatlar, ertaklar, masallar, matallar, maqollar, tez aytishlar, dostonlar va boshqa janrlardagi asarlar kiradi.

2. Ijrochilik san‘ati yo‘nalishi esa xalq ijodiyotining musiqa, raqs, tomosha san‘atining janrlarini o‘z ichiga oladi.

Musiqa sohasi bo‘yicha “SHashmaqom”, “Xorazm maqomlari”, “Toshkent-Farg‘ona maqom yo‘llari”, “Tanovar”, “Ushshoq”, “Feruz”, “Suvora”, “Lazgi”, “Mavrigi” singari turkumlar, allalar, o‘lanlar, yallalar, laparlar, madhiyalar, termalar, shuningdek xalfachilik va xududga xos boshqa yo‘nalishdagi asarlar kiradi.

Raqs sohasi bo‘yicha hududga xos raqslar, raqs harakatlari ifodalangan sahna asarlari milliy raqs uslublari va boshqa shu kabilar kiradi.

Tomosha san'ati sohasi bo'yicha milliy dorbozlik, polvonlik, an'anaviy sirk, ko'zboylog'ichlik, qo'g'irchoqbozlik va boshqa shu singari yo'nalishlar hamda boshqa milliy xalq o'yinlarini o'z ichiga oladi.

3. Jamiyatning urf-odat, marosim va bayramlari sohasi hududga yoki millatga xos bo'lgan urf-odatlar, marosim va an'analar hamda bayramlarni o'z ichiga oladi. Bunda, mehmondo'stlik an'analari, oilaviy marosimlar, to'y-hashamlar, farzand tarbiyasi bilan bog'liq urf-odat va marosimlar, milliy va mahalliy miqyosda o'tkaziladigan sayillar, tomoshalar, bayramlar, qadimiy bayramlarning zamonamizda foydalanish mumkin bo'lgan, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan qismi tushunilishi kerak.

4. Tabiat va koinot bilan bog'liq bilim va urf-odatlar insoniyatning tabiat va koinot bilan uyg'unligini ta'minlash borasidagi bilim va malakalarini o'z ichiga oladi. Masalan, kunning botishiga qarab ertangi kunning qanday kelishini aytib berish, oyning turishiga qarab keyingi oyning taxminiy ob-havosini aniqlash, hayvonlar harakati orqali sodir bo'ladigan voqealarni bashorat qilish, quduq qazish o'rni yoki imorat qurish joyini aniqlash, kasblar bilan bog'liq an'anaviy bilim va ko'nikmalar (masalan milliy sartaroshlik, an'anaviy tabibchilik, imoratsozlik, miroblik), pazandachilik yo'nalishlarida turli xil milliy taomlarni tayyorlash uslublari (masalan, tandir kabob, g'ilmindi, cho'pchima, bostirma, cho'poncha, hijjon va boshqa hududlarga xos bo'lgan taomlarni tayyorlash) kabilar.

5. An'anaviy hunarmandchilik bilan bog'liq bilim va ko'nikmalar sohasi pichoqchilik, kosiblik, duradgorlik, misgarlik, temirchilik, do'ppido'zlik, zardo'zlik, quroqchilik, kandakorlik, gilamchilik, terichilik, degrezlik, qo'g'irchoqsozlik, kulolchilik, ganchkorlik, yog'och o'ymakorligi, mayolika san'ati va boshqa shu kabi yo'nalishlarni qamrab oladi.

Nomoddiy madaniy merosni inventarlashtirishda ilmiy ekspeditsiya ahamiyati

Davlat strategiyasi va asosiy harakatlari: nomoddiy madaniy meros hamma soha va shakllarini qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini ishlab chiqish; nomoddiy madaniy meros ob'ektlarini inventarlashtirish va axborot yig'ish, ma'lumotlar bazasini yaratish, ro'yxatga olish, tadqiqot ishlarini o'tkazish; nomoddiy madaniy meros milliy va mahalliy ro'yxatlarini yaratish.

Qonun va davlat dasturining asosiy mezonlari: nomoddiy madaniy meros ob'ektlarini inventarlashtirish, hujjatlashtirish, arxivatsiya qilish; ma'lumotlar bazasini, Milliy va mahalliy ro'yxatlarini yaratish; nodir durdonalarni YUNESKOning Rerezentativ va boshqa ro'yxatlariga kiritish; nomoddiy madaniy meros muhofaza qilish va saqlash uchun nodavlat, notijorat va jamg'armalarni jalb qilish; Davlat dasturi bo'yicha har yili monitoring o'tkazish.

Inventarlashtirishning asosiy mezonlari: og'zakiylik, autentik, qadimiy ildizlari, o'ziga xoslik, bilim va ko'nikmalari, ijrochilik uslublari va usullarini saqlanishi, an'anaviylik, noyob boyligi, madaniy muhiti va umumiyligi, yo'qolish xafli, ustoz-shogird an'analari, zamonaviy hayoti, namoyandalari (saqlovchi va yetkazovchi).

Inventarlashtirish asoslari: matnli (informatsion-axborot, yozma-tahliliy), vizual (foto-video-film manbalari), kartografiya (NMM xaritasi, har bir ob'ekt yoki soha bo'yicha xaritasi), elektron-tovushli (audio va multimediya).

Inventarlashtirish uslublari: ekspeditsion (dala sharoitida ma'lumotlar to'plash va yozib olish), informatsion (axborot yig'ish), arxivatsion (arxivlar, tarixiy va etnografik manbalar orqali ma'lumotlar to'plash), tadqiqot (etnofonik-tizimli, tahliliy, qiyosiy, tarixiy-nazariy), o'quv (NMM o'quv jarayonida), amaliy (nashrlar, audiovizual manbalari) va targ'ibot (ilmiy anjumanlar, ko'rik-tanlovlar, festivallar, yarmarkalar, seminarlar, qo'rgazmalar, matbuot (OMV), telekommunikatsiya, master-klass (ustozlar sinfi) va h.).

Nomoddiy madaniy meros to'plash, o'rganish va saqlash juda muhim ahamiyat kasb etadi, shuning uchun unga tegishli bo'lgan barcha axborot-manbalarni yig'ish, uni faqat an'anaviy madaniyat nuqtai nazardan emas, balki uning autentik-amaliy va ijtimoiy-madaniy muhitini chuqur o'rganishni taqozo etadi. Bu turli ekspeditsiya (kompleks-turli sohalarni jamlagan, statsionar, ilmiy, folklor-etnografik)lar manba-hujjatlari va materiallari orqali amalga oshadi. Inventarlashtirishda – ekspeditsiyaning o'rni ahamiyatlidir. Ilmiy ekspeditsiyalari jarayonlarida ish olib borish, amaliyotning va ilmiy tadqiqotlarning muhim bosqichi hisoblanadi. Ekspeditsiyalar – ma'lum uslublar va nodir tajribalar o'tkazish uchun xolat.

Ilmiy ekspeditsiya jarayonida yig'ilgan ma'lumotlarni va tegishli hujjatlarni saqlash va idora qilish –barcha hudud, mintaqa va madaniy muhitlarni inventarlashtirishda, Milliy va mahalliy ro'yxatlarni tuzish va va targ'ib etish zarur. Ekspeditsiya – ish ahloqini, tizimni, malakalarni va zehni balandlikni talab etadi. Shu tufayli ekspeditsiya nafaqat mutaxassislar, balki joylarda davlat va nodavlat muassasalari, mahalla xodimlari, NMM namoyandalari va umuman voha va mahalla aholisi bilan hamkorligida va yordamida o'tkazilishi lozim. Joylarda tashkil etilgan guruhlar ilmiy ekspeditsiyaga amaliy yordam ko'rsatadi – ular orqali NMMning asl nusxalarini to'plash va ijro uslublarini audiovizual yozuvlarini olishga imkonini beradi.

Ekspeditsiya sharoitida yig'ilgan hujjatlar – nomoddiy madaniy merosni saqlash va muhofaza qilish, ilmiy o'rganish va amaliy o'zlashtirish va targ'ib qilish (ekspeditsiya uslublari – suhbatli va audiovizual yozuvli).

Ekspeditsiya ahamiyati:

- nomoddiy madaniy merosni identifikatsiyalash va inventarlashtirish uchun;
- nomoddiy madaniy merosni hujjatlartirish, har bir ob'ekt yoki soha bo'yicha ma'lumotlarga ega bo'lish, ma'lumotlar bazasini yaratish;

- nomoddiy madaniy merosning Milliy va mahalliy ro'yxatini tuzish uchun, nodir namunalarni YUNESKOning ro'yxatlariga kiritish;
- To'plangan nomoddiy madaniy meros ma'lumotlari asosida ilmiy va amaliy ishlarni olib borish (ilmiy tadqiqotlar, nashrlar, audiovizual (multimedia, SD, DVD), anjumanlar, ko'rik-tanlovlar, festitvallar, ko'rg'azmalar, matbuot;
- Ma'lumotlar to'plami – ta'rifli, tadqiqotli, eksprementalli, elektron-yozuvli, audiovizual, o'quvli (“ustoz-shogird” makatabi, o'quv muassasalar jarayonida dastur, darslik va o'quv qo'llanmalar), amaliy (turli folklor va boshqa jamoalari uchun yordam, tadbirkorlik uchun (amaliy san'at sohalari);
- Har bir ob'ekt, NMM sohasi yoki madaniy muhit haqida tafsiloti.

Ekspeditsiya mablag'i – byudjetli, jamg'arma, innovatsion. 2012-2013 yillari O'zbekiston Farg'ona vodiysi va Zarafshon hafzasi bo'yicha o'tkazilgan ilmiy ekspeditsiyalar Koreya Respublikasi Ichkap markazi tomonidan innovatsion yordamida, 2013-2014 yillaridagi ekspeditsiya respublika byudjeti tomonidan o'tkazilgan.

Ilmiy ekspeditsiyalar manbalari va materiallari o'zbek xalqining NMMni saqlash va muhofaza qilish, ularni muhimligi va turli-tuman ekanligini namoyish etadi. Ularning natijalari an'anaviy va zamonaviy madaniyatning etnik, elatlar, estetik, tarixiy, badiiy va madaniy-ma'naviy boyliklarini rang-barangligini, ijodiy potensial oqimini o'z ichiga olgan holda, kelajak avlodning ongiga yetkazish, saqlash, o'rganish va o'zlashtirish, hammaga oshkor qilishi kerak bo'lgan durdonalar asoslarini va yurtimiz aholisi orasida xabardorlikni oshirishni o'z ichiga oladi. Bu o'z navbatida bizning ma'naviyatimizni boyitadi va madaniyatni ko'p avlodlar osha yashab kelishiga kafolat beradi.

Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish maqsadida YUNESKO tomonidan bir nechta ro'yxatlar tashkil qilingan. Ular orasida ko'lami katta ro'yxatlardan biri insoniyat nomoddiy madaniy merosi Reprezintativ ro'yxatidir.

Bu ro'yxatni YUNESKO yuritib boradi. Unga dunyo xalqlarining eng noyob durdonalari 24 davlat vakillaridan iborat maxsus komissiya muhokamasi asosida kiritiladi. Bugungi kungacha mazkur ro'yxatga dunyo bo'yicha 366 ob'ekt kiritilgan. Shuningdek, ushbu nufuzli tashkilotning nomoddiy madaniy merosga oid yana ikkita ro'yxati mavjud. Bular zudlik bilan muhofazaga olinishi lozim bo'lgan nomoddiy madaniy meros namunalari ro'yxati hamda Eng yaxshi tajribalar reestri.

Nomoddiy madaniy meros namunalarining mahalliy ro'yxatlari tuzilib, doimiy tarzda yangilanib boriladi. Mahalliy ro'yxat bu muayyan hududga xos bo'lgan nomoddiy madaniy meros namunalari to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatilgan hisobga olish hujjatidir. Mazkur ro'yxat viloyat miqyosida tuziladi va uni muntazam yuritishdan ko'zlangan asosiy maqsad nomoddiy madaniy meros namunalarining davlat muhofaza qilishiga erishishdan iborat. Mahalliy ro'yxatlar respublika darajasida tuziladigan Milliy ro'yxatni, Milliy ro'yxat esa o'z navbatida, dunyo bo'yicha yuritiladigan insoniyat nomoddiy madaniy merosi Reprezentativ ro'yxatiga tavsiya etilayotgan namunalar ro'yxatini to'ldirib, yangilab boradi.

Nomoddiy madaniy meros muhofozasi bo'yicha Konvensiyaga muvofiq har bir ishtirokchi davlat:

- o'z hududida joylashgan nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo'yicha tegishli choralarni ko'rishi lozim;
- muhofaza qilish choralari doirasida o'z hududida mavjud bo'lgan nomoddiy madaniy merosning turli xil unsurlarini hamjamiyatlar, guruhlar va tegishli nohukumat tashkilotlar ishtirokida identifikatsiyalashi va aniqlashi lozim.²

Har bir davlat o'z hududida mavjud bo'lgan nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilishni ta'minlash, rivojlantirish va rolini oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni tadbiq etadi:

² Номоддий маданий меросни муҳофаза қилиш бўйича халқаро конвенция, 13-модда, 2003 йи 17 октябрь Париж

- nomoddiy madaniy merosning jamiyatdagi rolini oshirish va ushbu merosni muhofaza qilishni rejalashtirish dasturiga kiritishga yo‘naltirilgan umumiy siyosatni ishlab chiqadi va amalga oshiradi;
- o‘z hududida mavjud bo‘lgan nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilishga ixtisoslashgan bir yoki bir nechta vakolatdor tashkilotni aniqlaydi yoki tashkil etadi;
- nomoddiy madaniy merosni, xususan, xavf ostida bo‘lgan nomoddiy madaniy merosni samarali muhofaza qilish maqsadida ilmiy, texnikaviy, san’atshunoslik sohasidagi tadqiqotlarga, shuningdek, ilmiy-tadqiqot metodologiyalarini ishlab chiqishga yaqindan ko‘maklashadi;
- quyidagi vazifalarga yo‘naltirilgan huquqiy, texnikaviy, ma’muriy va moliyaviy choralarni ko‘radi:
- nomoddiy madaniy merosni boshqarish sohasida kadrlar tayyorlovchi muassasalarni tashkil etish yoki mustahkamlashga ko‘maklashish, shuningdek, ushbu merosni turli anjumanlar va uni makonlarda keng taqdim etishga qaratilgan sa’y-harakatlar orqali tanishtirish va targ‘ib etish;
- nomoddiy madaniy merosning u yoki bu jihatlaridan foydalanish imkoniyatini tartibga solish, qabul qilingan qoidalarga qat’iy rioya qilish tamoyilini amalga joriy etish asosida nomoddiy madaniy merosdan foydalanish imkoniyatini oshirish;
- nomoddiy madaniy merosni hujjatlashtirish bilan shug‘ullanuvchi muassasalarni barpo etish va ulardan foydalanishni yengillashtirish.³

Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 7 oktyabrdagi 222-son qaror bilan tasdiqlangan davlat dasturiga muvofiq nomoddiy madaniy meros muhofaza qilishi,

³ Номоддий маданий меросни муҳофаза қилиш тўғрисидаги халқаро конвенция 2003 йи 17 октябрь Париж

asrash, targ'ib qilish va ulardan foydalanish Davlat dasturida belgilangan ustuvor yo'nalishlar bo'yicha quyidagi ishlar amalga oshirildi:

2011 yil 23 fevralda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Nomoddiy madaniy meros muhofazasiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida" 47-son qarori qabul qilinib, uning 2-ilovasida Nomoddiy madaniy meros ob'ektlarini tarixiy-madaniy ekspertizadan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom tasdiqlangan. 2013 yilda ushbu Nizomning 3-bo'limi 5-bandiga asosan nomoddiy madaniy meros ob'ektlarini tarixiy-madaniy ekspertizadan o'tkazish bo'yicha Ilmiy-uslubiy kengash tuzilgan.

2011 yilda Respublika xalq ijodiyoti va madaniy-ma'rifiy ishlar ilmiy-metodik markazida Nomoddiy madaniy merosni hujjatlashtirish bo'limi tashkil etildi. Dastur ijrosi bo'yicha davlat va nodavlat tashkilotlari tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar haqidagi ma'lumotlar Markaz tomonidan umumlashtirib borilmoqda.

1.2. O‘zbekistonda nomoddiy madaniy meros bilan shug‘ullanuvchi madaniy-ma’rifiy muassasalar

Madaniy-ma’rifiy faoliyat – aholini ma’naviy kamol toptirish, ma’naviy saviyasini oshirish, bilimni o‘stirish, dunyoqarashini kengaytirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, bo‘sh vaqtini samarali o‘tkazishga ko‘mak beradigan ishlar majmuasidir. Madaniy-ma’rifiy faoliyat bilan mafkura, ma’naviyat, madaniyat, ma’rifat, tarbiya, ijodga aloqador bo‘lgan barcha tashkilotlar mashg‘ul bo‘lishadi. Shuning uchun madaniy-ma’rifiy muassasa xodimi madaniy-ma’rifiy faoliyat asoslarini yaxshi bilmog‘i lozim.

Shu o‘rinda ma’rifat so‘ziga izoh berib ketish maqsadga muvofiq. *Ma’rifat*-tabiat, jamiyat va inson mohiyati haqidagi turli-tuman bilimlar, ma’lumotlar majmuasini bildiradi. Ma’rifatli degani-bilimli, muayyan soxada ma’lumoti bor, deganidir. Ma’rifatni xayotga singdirish maorif tizimi orqali amalga oshiriladi. Maorif asosan, umumiy va o‘rta maxsus bilim beruvchi maktab va o‘quv yurtlari tarmoqlarini qamrab oldi. Ma’rifat tushunchasi esa kengroq bo‘lib, bilim va madaniyatni yoyish va yuksaltirishning hamma turlari va sohalarini o‘ziga qamraydi.

Madaniy – ma’rifiy muassasalar quyidagi turlarga bo‘linadi: Kutubxona, muzey, madaniyat va aholi dam olish markazlari, istirohat bog‘i, madaniy dam olish maskanlari, teatrlar, kinoteatrlar, sport tashkilotlari, shu soha bilan

shugʻullanuvchi jamoat birlashmalari va fondlari, shuningdek, baʼzi kasbiy va ijodiy uyushmalar kiradi.

Kutubxonalar oʻzlarining vazifalari, faoliyatlari, kitob fondlarining tarkibiga qarab, ommaviy, texnikaviy va turli maxsus kutubxonalar, oʻquv yurtlari kutubxonalari, ilmiy kutubxonalarga boʻlinadi. Ommaviy kutubxonalar aholining turli sohaga doir kitoblarga boʻlgan talablarini qondirishga qaratilgan boʻladi.

Bugungi kunda Respublikamizda faoliyat olib borayotgan quyidagi kutubxonalarni koʻrsatib oʻtish mumkin:

1.A.Navoiy nomidagi Milliy kutubxona

2.Viloyat kutubxonalari.

3.Shahar, tuman kutubxonalari.

4.Qishloq kutubxonalari.

5.Bolalar kutubxonalari.

6.Madaniyat markazlari byudjetida turuvchi kutubxonalari.

7. *Oʻquv yurtlari kutubxonalari.* Ular oʻzlarining fondlariga qarab umumtaʼlim maktablari, kasb-hunar kollejlari, oliy oʻquv yurtlari, malaka oshirish kurslari va institutlarning kutubxonasiga boʻlinadi.

8. *Ilmiy-texnika va turli maxsus kutubxonalar.* Bu kutubxonalarning kitob fondlari ishlab chiqarish malakalarini oshirishda, xalq xoʻjaligi yoʻnalishidagi madaniyatning konkret vazifalarini hal qilishda turli sohadagi xodimlarga yordam beruvchi adabiyotlardan tashkil topadi. Bularga korxonalar, ilmiy muassasalar, nashriyotlar, teatr, musiqa va sanʼat, sport tashkilotlarining kutubxonalari kiradi.

9. *Ilmiy kutubxonalar.* Ular oʻz ishlarini fan, madaniyat, ishlab chiqarish talablariga muvofiq tashkil qiladi, mutaxassislariga ilmiy malakalarini oshirishda koʻmaklashadi.

Muzeylar - Ular vazifasi tarixiy hujjatlarni, moddiy va nomoddiy madaniy meroslarni, san'at asarlarini, tabiat boyliklarining namunalarini to'plash, saqlash, ularni ilmiy ishlab chiqarish va ko'rgazmaga qo'yishdan iboratdir. Shular bilan birgalikda muzeylar ilmiy - tekshirish ishlarini ham olib boradilar.

Muzeylar quyidagi tarmoqlarga bo'linadi:

1. Tarix muzeylari.
2. Xotira yodgorlik muzeylari.
3. O'lkashunoslik muzeylari.
4. San'atshunoslik muzeylari.
5. Tabiiy-ilmiy muzeylar.

1. *Tarix muzeylarida* Vatanimiz tarixini aks ettiruvchi hujjatlar, yodgorliklar, moddiy va nomoddiy madaniy meros estaliklari to'plangan bo'ladi.

2. *Xotira-yodgorlik muzeylari* Respublikamizning mashhur arboblari; shuhrat qozongan yozuvchi va rassomlar, kompozitor, olimlari, san'atkorlar xotirasiga bag'ishlangan bo'ladi. Bularga G'.G'ulom, A.Qahhor, Oybek uy-muzeylari, O'rol Tansiqboev, M.Ashrafiy uy - muzeylari, Tamaraxonim, M.Turg'unboeva va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

3. *O'lkashunoslik muzeylari*. Viloyat, tumanning tabiiy sharoiti tarixi, xo'jaligi madaniyati va turmushini aks ettiruvchi hujjatlar va yodgorliklarni to'playdi.

4. *Tabiiy-ilmiy muzeylarga* tabiatshunoslik, biologiya, geografiya muzeylari kiradi.

5. *San'atshunoslik muzeylari*. Ularga tasviriy san'at, amaliy san'at, arxitektura, musiqa, teatr san'ati yutuqlarini ko'rsatuvchi muzeylar kiradi.

Madaniyat markazlari va saroylari ikki turga bo'linadi:

I. Madaniyat Vazirligi tizimidagi madaniyat va aholi dam olish markazlari. Ayni paytda ularning soni 894 tani tashkil qiladi.

II. Kasaba uyushmalari tarmog'idagi madaniyat saroylari. Ularga korxonalar va tashkilotlar hamda Mudofaa vazirligi qoshidagi, shuningdek, sanatoriylar va boshqa muassasalarga qarashlilar kiradi.

Madaniyat va istirohat bog'lari - ularda ommaviy sayillar, karnavallar, sport va boshqa bayramlar, turli ommaviy tomoshalar o'tkaziladi, spektakllar, kinofilmlar qo'yiladi, siyosiy va ilmiy ma'ruza va dokladlar tinglanadi. Madaniy dam olish uchun keng imkoniyatlar yaratilgan bo'ladi. Bundan tashqari madaniyat va istirohat bog'larining bezagi, ulardagi tabiiy manzarali joylar kishilarning estetik didlarini o'stirishga yordam beradi. Ushbu bog'lar ayni paytda Respublika bo'yicha 225 tani tashkil qiladi. Mazkur istirohat bog'lari ham bevosita nomoddiy madaniy meros targ'iboti bilan shug'ullanadi. Jumladan ularda har yili folklor san'ati targ'ibotiga bag'ishlangan festivallar hamda Navro'z bayramiga bag'ishlab sayillar tashkil etib boriladi.

Teatrlar – sahna asarlarining janrlariga muvofiq, quyidagilarga bo'linadi:

- A) opera va balet teatrlari;
- B) drama;
- V) muzikali komediya teatrlari;
- G) yosh tomashabinlar teatrlari;
- D) qo'g'irchoq teatri
- E) miniatyura teatrlari
- J) estrada teatrlari

Konsert tashkilotlariga quyidagilar kiradi:

- A) davlat filarmoniyalari;
- B) davlat estrada jamoalari

V) mustaqil musiqa jamoalari.

Kinoteatrlar – kinofilm namoyish qilish uchun maxsus jixozlangan maskan.

Shuningdek, ma'naviy – ma'rifiy ishlar bilan ommaviy axborot vositalari (radio, tv, matbuot); Ta'lim tarbiya muassasalari; Ijodiy uyushmalar (yozuvchilar, rassom, kompozitorlar, teatr arboblari) ham shug'ulanadilar.

O'zbekiston hududida hozirgi mazmundagi madaniy-ma'rifiy muassasalar 20-asrning 20-yillaridan, ya'ni ideologik faoliyatning mustaqil sohasi sifatida vujudga kelishi va rivojlanishi bilan bog'liq holda boshlangan: “davr xususiyatidan kelib chiqqan holda madaniy-ma'rifiy muassasalarning faoliyati umumta'limiy vazifalarni, fan, san'at va axloqni takomillashtirish, kasbiy ta'limni yo'lga qo'yish, milliy madaniyatni rivojlantirishga qaratildi. Dastlab madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyatni olib borishning tayanch shoxobchasi sifatida choyxonalar, keyinchalik klublar tashkil etila boshlandi (1918 yilda dastlabki ishchi klubi va 1924 yilda birinchi xotin-qizlar klubi Toshkent shahrida ochilgan); klublarda targ'ibot tashviqot ishlari, savodsizlikni tugatish borasidagi ishlar, milliy bayramlarni o'tkazish bo'yicha ishlar olib borilgan.”⁴ Kutubxonalar, sayyor truppalar, ko'chma konsert va kinoseanslar, karnaval tomoshalari, kechalar va boshqalar tashkil etilgan. 1914 y.da Toshkentda «Turon» teatr truppasi tuzilgan, 1918 yildan Mannon Majidov (Uyg'ur) bu truppaga rahbarlik qilgan.

Madaniy-ma'rifiy muassasalar tarxiga nazar. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng madaniy-ma'rifiy faoliyatning yangi takomillashgan tizimi shakllandi. Bunda O'zbekiston muzeylari, madaniyat uylari va saroylari, kutubxonalar, madaniyat va istirohat bog'lari ommaviy muassasalar bo'lib, ular millionlab aholi uchun madaniy xizmat ko'rsatadi. Respublika «Ma'naviyat va ma'rifat markazi» (1994) tashkil etildi va uning viloyatlar, tumanlar va shaharlardagi bo'limlari ishga tushirildi. Markazga Respublika ma'naviyat va

4

ma'rifat kengashi rahbarlik qiladi. madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyatini yanada rivojlantirish hamda samaradorligini oshirish borasida bir qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Respublikaning barcha viloyatlari, yirik shaharlari va tumanlarida ish olib borayotgan madaniy-ma'rifiy muassasalar ishtirokida katta xalq sayillari, hosil bayramlari, «Mustaqillik», «Navro'z», «Mehrjon» bayramlari, «Sharq taronalari» xalqaro festivali, xonandalar, raqqosalar, eng yaxshi kasb ustalarining ko'rik tanlovlari, «O'zbekiston Vatanim manim» qo'shiq konkursi va boshqa ko'rik tanlovlar o'tkazilmoqda. Hozirgi kunda barcha madaniy-ma'rifiy muassasalar yo'nalishi har bir kishiga milliy istiqlol g'oyasini, milliy mafkurani singdirish, barkamol insonni voyaga etkazish, vatanparvarlik, mehr-oqibat, imonu e'tiqodni tarbiyalashga qaratilgan.

Madaniy-ma'rifiy muassasalar O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi hamda Jismoniy tarbiya va sport vazirligi tarmog'ida bo'lib, viloyatlar, tuman qolaversa chekka-chekka qishloq hayotiga kirib borish, ularning ijtimoiy turmush darajasini yaxshilash, madaniylashuvni amalga oshirish, shuningdek, insonparlik, qalban poklik, mehru-muruvvat, hayri-sahovat, dinlararo bag'rikenglik, millatlararo totuvlik, eng asosiysi yosh avlodni milliy ma'naviyatimiz, urf-odatlarimizga sodiq qilib tarbiyalash, jamiyat kishilari ko'z o'ngida tinch va osuda hayotga intilish va uning qadriga etish, jaxolatga qarshi ma'naviyat bilan kurashmoq, yosh avlod ong shuurida yot g'oyalar paydo bo'lishi, mafkuraviy bo'shliq vujudga kelishini oldini olishga qaratilgan amaliy faoliyatni amalga oshiradi.

Darhaqiqat, madaniy-ma'rifiy muassasalar milliy istiqlol g'oyasini singdirishda, kishilar ma'naviyatini shakllantirishda, ularda milliy g'urur va iftixorni uyg'otishda, ma'naviy barkamol inson bo'lib yetishlarida muhim vosita sanaladi. Faqat bu imkoniyatlardan keng va maqsadli, zamon talablariga mos ravishda amalga oshirish zarur.

Bugungi kunda respublikamizda 30 dan ortiq madaniy-ma'rifiy muassasalar nomoddiy-madaniy meros targ'iboti bilan shug'illanmoqda. Ularning so'ngi yillardagi faoliyati haqida atroflicha to'xtalib o'tsak.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi san'atshunoslik instituti. O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti olimlari xalqaro va respublika ilmiy konferensiyalarida nomoddiy madaniy meros masalalariga bag'ishlangan quyidagi ma'ruzalar bilan ishtirok etishgan:

1. Jo'raev M., Tosheva D. Zoonim komponentli maqollarda metonimiya // Global taraqqiyot va o'zbek tilshunosligining dolzarb masalalari (ilmiy-nazariy anjuman materiallari). – Toshkent, 2017. – B.164-169.

2. Jo'raev M., Tosheva D. Zoonimlarning xalq madaniy hayotini ifodalashdagi ahamiyati // Lingvist (ilmiy maqolalar to'plami. – Toshkent, 2017. – B.75-78.

3. Xudoyqulova L. Alisher Navoiy ijodida folklorga oid motivlar haqida mulohazalar // Alisher Navoiy tavalludining 576 yilligiga bag'ishlangan VIII an'anaviy Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Navoiy, 2017. – B.248-252.

4. Jo'raeva M. Xalq rivoyatlarida Navoiy siymosi // Alisher Navoiy tavalludining 576 yilligiga bag'ishlangan VIII an'anaviy Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Navoiy, 2017. – B.306-307.

5. Jo'raeva M. Rudimenty magii volosa v uzbekskix narodnykh zagadkax. / H.Aliev tavalludining 94 yilligiga bag'ishlangan Yosh tadqiqotchilarning I-Halqaro ilmiy konferensiyasi. – Baku, 2017.

6. Imomnazarova SH. Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur ijodida o'lan atamasining tahlili // Alisher Navoiy tavalludining 576 yilligiga bag'ishlangan VIII an'anaviy Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari – Navoiy, 2017. – 303-305-betlar.

9.Imomnazarova SH. Epitet v uzbekskix narodnyx ulanax. / H.Aliev tavalludining 94 yilligiga bag'ishlangan YOsh tadqiqotchilarning I-Halqaro ilmiy konferensiyasi. – Baku, 2017.

Shuningdek, O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti xodimlari xalqaro va respublika ilmiy konferensiyalarida nomoddiy madaniy meros masalalariga bag'ishlangan ma'ruzalar bilan ishtirok etildi. Xususan, 2017 yil 21 oktyabr kuni O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida "O'zbek madaniy merosi – jahon nigohida" respublika ilmiy-amaliy anjumanida akademiya professori Mamatqul Jo'raev "O'zbekistonda navro'z bayramining tarixiy ildizlari" mavzusi ma'ruzasi bilan ishtirok etdi.

Bundan tashqari institutda "O'zbek xalq ijodi yodgorliklari" 100 jildligini nashrga tayyorlash va uni tekstologik o'rganish masalalari" mavzusidagi fundamental ilmiy loyiha asnosida keng ko'lamli tadqiqot davom ettirilmoqda. Bu loyihada L.Xudoyqulova, B.Mirzaeva, Z.Rasulova, M.Jo'raeva, D.Igamurodova, SH.Imomnazarova, SH.Nazarova, F.Jabborov kabi yosh olimlar faol ishtirok etishmoqda. O'zR FA San'atshunoslik institutida "O'zbekistonning qadimgi va o'rta asr badiiy madaniyatida an'analar va innovatsiyalar" amaliy loyihasi ustida tadqiqot ishlari davom ettirilmoqda.

O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti Folklor arxivida saqlanayotgan folklor qo'lyozmalari va fonoyozuvlarni ilmiy tavsiflash va o'rganish borasida quyidagi ishlar bajarildi:

1. "O'zbek xalq ijodi yodgorliklari" 100 jildligining 36-jildiga kiritilishi mo'ljallangan "Avazxon" dostonining Muhammadqul Jonmurod o'g'li Po'lkan va Rahmatulla Yusuf o'g'li variantlari matni kompyuter xotirasiga o'tkazildi (bajaruvchilar: L.Xudoyqulova, M.Jo'raeva).

2. "O'zbek xalq ijodi yodgorliklari" 100 jildligining 41-jildiga kiritilishi mo'ljallangan Fozil Yo'ldosh o'g'lining "Zulfizar va Avaz", Islom shoir Nazar o'g'lining "Zulfizar va Avazxon" va Rahmatulla Yusuf o'g'lining "Zulfizar"

dostonlari matni nashrga tayyorlandi (bajaruvchilar: M.Jo‘raev, SH.Imomnazarova, ish hajmi: 200 bet).

3. “O‘zbek xalq ijodi yodgorliklari” 100 jildligining 38-jildi (“Hasanxon”)ga kiritilishi mo‘ljallangan Zohir Qo‘chqor o‘g‘lining “Rayhon arab” dostoni nashrga tayyorlandi (bajaruvchi: M.Jo‘raev, ish hajmi: 60 bet).

Shuningdek, folklor arxivida saqlanayotgan folklor qo‘lyozmalari va fonoyozuvlarni ilmiy tavsiflash va o‘rganish borasida quyidagi ishlar bajarildi:

1. Muhammadqul Jonmurod o‘g‘li Po‘lkandan yozib olingan “Hasanxon” dostoni matni kompyuter xotirasiga o‘tkazildi (bajaruvchi: D.Igamuradova).

2. Islom shoir Nazar o‘g‘lining “Zulfizar” dostoni matni kompyuter xotirasiga kiritildi.

3. Folklor arxivida saqlanayotgan “yor-yor” qo‘shiqlarini tekstologik o‘rganilib, badiiy jihatdan mukammal namunalar matni kompyuter xotirasiga kiritildi (bajaruvchi: L.Xudoyqulova).

Institut tomonidan 2017 yil 25-30 iyun kunlari Surxondaryo viloyatiga Folklor ekspeditsiyasi uyushtirildi.

Shu bilan birga xalq ijodiyotining eng sara namunalari jamlanmasidan iborat “O‘zbek xalq ijodi yodgorliklari” 100 jildligini tayyorlash ishlari fundamental ilmiy loyiha asosida davom ettirilmoqda. O‘tgan davr mobaynida quyidagi jildlar ustida ish olib borildi:

1. O‘zbek xalq ijodi yodgorliklari” 100 jildligining 40-jildi (“Bo‘tako‘z”)ga kiritilishi mo‘ljallangan Abdimurod Berdixol o‘g‘lining “Bo‘tako‘z” dostoni nashrga tayyorlandi va matn yuzasidan lug‘at tuzildi (bajaruvchi: J.Eshonqulov, ish hajmi: 2,5 b.t.)

2. “O‘zbek xalq ijodi yodgorliklari” 100 jildligining 39-jildi (“Soqibulbul”)ga kiritilishi mo‘ljallangan Usmon Mamatqul o‘g‘lining “SHoxdorxon” dostoni nashrga tayyorlandi (bajaruvchi: M.Jo‘raeva, ish hajmi: 95 bet).

O‘zbekiston xalq baxshisi Abdinazar Poyonov ijrosidagi “Alpomish” dostonidan 2 ta aytim nag‘masi notaga olinib, kompyuterda maxsus nota dasturida terishga topshirildi.

Shuningdek, “O‘zbek xalq ijodi yodgorliklari” 100 jildligini tayyorlash ishlari fundamental ilmiy loyiha asosida davom ettirilib, quyidagi jildlar ustida ish olib borilmoqda:

40-jild. “Bo‘tako‘z” (o‘zbek xalq dostonlari). “Bo‘tako‘z” dostonining Muhammadqul Jonmurod o‘g‘li Po‘lkan shoir, Abdimurod Berdixol o‘g‘li va Usmon Mamatqul o‘g‘li variantlari matniy tahlil qilinib, nashrga tayyorlandi (ish hajmi: 300 bet; bajaruvchi: J.Eshonqulov).

41-jild. “Zulfizar” (o‘zbek xalq dostonlari). “Zulfizar bilan Avaz” dostonining Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li va Islom shoir Nazar o‘g‘li variantlari, “Zulfizar” dostonining Rahmatulla Yusuf o‘g‘li va Chorshanbi Boborahmatov variantlari matniy tahlil qilinib, nashrga tayyorlandi (ish hajmi: 417 bet; bajaruvchilar: M.Jo‘raev, SH.Imomnazarova).

Institut tomonidan “Alpomish” dostoni “Maktab kutubxonasi” seriyasida (Aytuvchi: Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li. Yozib oluvchi: Mahmud Zarifiy. Nashrga tayyorlovchilar: H.Zarifov, T.Mirzaev. Mas’ul muharrir: M.Jo‘raev.) 448 sahifada chop etildi. SHuningdek, san’atshunos olimlar tomonidan taniqli hofizlar F.Mamadaliev, R.Mamadaliev va K.Hamroqulov ijrosida yozib olingan fonoyozuvlar (jami 11 ta trek) elektron raqamli formatga ko‘chirildi.

Bundan tashqari institutida “O‘zbek an’anaviy musiqasi” ko‘p tomlik antologiyasini nashrga tayyorlash ishlari tizimida “SHashmaqom”, Xorazm va

Farg‘ona-Toshkent maqomlari, dutor va surnay maqom yo‘llari, shuningdek, o‘zbek xalq qo‘shiqlarining musiqasi notalashtirish va SD, DVD, multimedia ko‘rinishlarida tayyorlash ishlari olib borilmoqda.

Shuningdek, San‘atshunoslik instituti olimlari “Xorazm raqsi - Lazgi” haqida to‘liq ma‘lumotlarni YUNESKOga taqdim etishda bevosita ishtirok etishdi.⁵

O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi. MTRK arxivida nomoddiy madaniy merosga doir teleko‘rsatuvlar, hujjatli filmlar va radio eshittirishlar saqlanmoqda. Nomoddiy madaniy meros tarixining mohiyatini ochib beruvchi qadimiy qo‘lyozmalar, fono yozuvlarni sinchiklab o‘rganish bo‘yicha turli hujjatli filmlar ishlanib, ko‘rsatuvlar berilib borilmoqda. Teleradiokompaniya o‘zbek an‘anaviy musiqasiga oid ma‘lumotlarni jamlash va yaxlit holda chop etilishini o‘z ish faoliyatida rejalashtirilmagan. Ammo, an‘anaviy musiqaga doir audio va video yozuvlarni MTRK arxiviga muntazam joylab bormoqda.

Shuningdek, teleradiokompaniyada nomoddiy madaniy merosni targ‘ib etishga qaratilgan «Tarannum», «Azim daryo», «Mumtoz navolar», «Oltin do‘mbira», «Xalq o‘yinlari», «Xalq dostonlari», «SHashmaqom», «Sayqal», «Bizda bori qayda bor?», «Ijod sirlari», «An‘ana», «Nazm va navo», «O‘tmishga sayohat», «Ekspeditsiya», «Hunarlarda hayot jilvasi», «Durdona», «Baxshilar bayoti», «Madaniyat jilolari», «Tarannum», «Qadr topgan qadriyatlar», «Qadriyat», «Ona zamin ohanglari», «Moziy» kabi ko‘rsatuv va eshittirishlar tashkil qilingan.

Shu bilan birga hunarmandchilik mollari tayyorlanishini aks ettiruvchi 5 ta ko‘rsatuv muntazam efirga uzatilmoqda.

Madaniyat vazirligi tomonidan tashkil etilgan festivallar teleradiokompaniyaning informatsion dasturlarida muntazam yoritib borildi.

⁵ ЎЗР ФА Ўзбек тили, адабиёти ва фольклори институтининг 2017 йил Ахборотномасидан фойдаланилди.

Shuningdek, “Madaniyat va ma’rifat” kanali orqali “Boysun bahori” festivali 2 qismdan iborat shaklda hamda “Navo” telekanalida “Nurli navolar” festivali to’liq efirga uzatildi.

Matbuot va axborot agentligi. M.Payzievaning “O‘zbeklarning an’anaviy va zamonaviy motam marosimlari” monografiyasi hamda P.Norbo‘taevning “Qashqadaryo vohasi o‘zbeklari etnik xususiyatlarining xalq dostonlarida aks etishi” monografiyasi chop etildi.

“San’at” jurnali nashriyotida N. Hasanovanning “XX asr O‘zbekiston badiiy ta’limi tarixi va rivojining asosiy tendensiyalari” monografiyasi chop etildi. Agentlik tizimidagi “Klass!”, “Tong yulduzi” gazetasi hamda “Gulxan”, “G‘uncha” jurnallari sahifalarida 130 dan ortiq maqolalar yoritildi.

Shuningdek, "Momolarimizdan meros san’at", "Ma’naviy xazina", "Qadri baland qadriyatlar", "Ona qo‘shig‘i – ruh oromi", "Omonmisan, bormisan, suyuqli Navro‘zim!!!", "Bayram sayllari taassurotlarga boy bo‘ldi", "Boqiy an’analar davom etadi", "Mardlik va shijoat ayyomi", "Hamjihatligimiz ifodasi", "Qadriyatlar, urf-odatlar, an’analar va yoshlar", "Xush kelding, Navro‘z!", "Dillarda bayram shukuhi", "Navro‘z sog‘inchi", "Mehr-oqibat ifodasi", “Milliy raqs – ma’naviyatimizning ajralmas qismi”, “O‘zbekim do‘ppilari”, “Milliy qadriyatlar namoyishi” kabi 80 dan ortiq materiallar O‘zA saytiga joylashtirildi. Shu bilan birga nomoddiy madaniy meros mavzularida 250 ga yaqin yozma va foto materiallar ommaviy axborot vositalarida yortib borildi.

Davlatimiz tomonidan milliy an’ana va qadriyatlarimizni asrab-avaylash va rivojlantirish borasida ko‘rsatilayotgan ulkan e’tibor, xususan, nomoddiy meros ob’ektlarini o‘rganish, muxofazalash, yo‘qolib borayotgan an’analarni qayta tiklash va targ‘ib etishda vazirlik va idoralar, ijodiy va jamoat tashkilotlari, ilmiy-tadqiqot muassasalari hamkorligidagi ishlar samaralari atroflicha yoritilmoqda.

Respublika markaziy gazeta va jurnallari tahririyatlariga, tizimdagi

tahririyatlarga mavzuni tizimli yoritish, adabiyotlar nashr qilib borish yuzasidan tavsiya berildi. Ommaviy axborot vositalarida hisobot davrida chop qilingan xabar, maqola, intervyu, fotolavha janridagi materiallar soni qariyb 1000 tani tashkil etadi. E'lon qilingan materiallarda nomoddiy madaniy merosni asrash va targ'ib qilish, uni yosh avlodga etkazish, mamlakatimizda milliy hunarmandchilikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishga qaratilgan islohotlar izchillik bilan olib borilayotgani ta'kidlangan. Xususan, chop etilgan kitoblar qatori "Milliy tiklanish", "Hurriyat", "Jamiyat", "Toshkent oqshomi" va boshqa nashrlarda berilgan materiallar alohida ahamiyat kasb etadi.

Davlat dasturi ijrosi yuzasidan joylardan amalga oshirilayotgan ishlar haqida lavha va reportajlar, intervyular berib borildi. Yosh folklorshunos M.Abduqodirova «Xalq og'zaki ijodida tabiat tasviri», «Qish fasliga xos bo'lgan xalq qo'shiqlari» mavzularida bilan suhbat uyushtirildi.

Umuman olganda agentlik tomonidan 2017 yil davomida ushbu mavzuda 250 ga yaqin yozma va foto material tayyorlanib, ommaviy axborot vositalariga uzatildi, UzA saytiga joylashtirildi. "Jahon uzra taralmoqda sharq taronalari", "Ezgulikka chorlovchi festival", "Qalblarni tutashtirgan navolar", "Samarqand mehmonlarni chorlaydi", "Ko'xna va boqiy Buxoro", "Do'stlik va xamjixatlik festivali", "Polvonlarimiz Osiyoda tengsiz", "Parkent beshiklarining dovrug'i", "Faxriy oshpazlar tanlovi", "Azaliy qadriyatlar namoyishi", "Har naqshida hikmat mujassam", "Tarixiy merosimiz – bebaho boyligimiz" kabi materiallar berib bolrildi.⁶

Xalq ta'limi vazirligi. 2013-2015 yillarda "Barqaror taraqqiyotda umumta'lim maktab o'qituvchilari orasida nomoddiy madaniy meros xabardorligini kuchaytirish" loyihasi Madaniyat vazirligi hamda YUNESKOning O'zbekistondagi vakolatxonasi bilan hamkorlikda olib borilib, natijada 2 ta o'quv qo'llanma va 2 ta uslubiy qo'llanma o'zbek, ingliz va rus tillarida nashr etildi.

⁶ Ахборот ва матбуот агентлигининг 2017 йил Ахборотномасидан фойдаланилди.

Ushbu loyiha asosan O'zbek milliy o'yinlari va O'zbek xalq qo'shiqlari yo'nalishida olib borildi.

Nomoddiy madaniy meros, uning mohiyati va jamiyat taraqqiyotidagi o'rni to'g'risida o'quvchilarning xabardorlik darajasini oshirish maqsadida "Nomoddiy madaniy meros nima?", "Nomoddiy madaniy meros - xalq durdonasi" mavzularida uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqildi. Respublika ta'lim markazi mutaxassislari tomonidan "O'tmish, bugun va kelajak chorraxasi" nomli tavsiya tayyorlanib, "Ma'rifat" gazetasida chop etildi.

Maktablarda ajdodlarimiz qoldirgan boy moddiy va ma'naviy merosni asrab-avaylash haqida davra suhbatlari muntazam tashkil etilmoqda. 5-6-sinflarning "Vatan tuyg'usi", 7-9-sinflarning "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari", 5-sinfning "Tarixdan hikoyalar" fanlari bo'yicha darsliklar ekspert guruhlariga tomonidan qayta ko'rib chiqilib, ularga tegishli tuzatishlar kiritildi. Ushbu darsliklarning maketlarida milliy bayramlarimiz Navro'z, Hayitlar va shu kabi umumxalq bayramlarining kelib chiqish tarixi, ularning hozirgi kundagi ahamiyati yoritib berilgan.

Nomoddiy madaniy meros, uni saqlash va muhofaza qilish tushunchalarini umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarining tegishli fan mavzularida hamda tarbiyaviy soat mashg'ulotlarida singdirib borish, ularni asrash va avaylash kelgusi avlodlarga etkazish har bir o'quvchining burchi ekanligi haqidagi tushunchalar Respublika ta'lim markazi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan umumiy o'rta ta'lim maktab o'qituvchilari uchun "Diniy ekstremizm va terrorizm – yoshlar kelajagiga tahdid", "Moddiy va nomoddiy madaniy meroslarni asrash", "Din va yoshlar" mavzularida tavsiyalar, buklet va tarqatma materiallarning elektron variantlari joriy yilning an'anaviy avgust kengashlarida o'qituvchilarga tarqatildi.

YUNESKOning Bangkok ofisi tomonidan e'lon qilingan «Umumta'lim maktablari o'qituvchilarining nomoddiy madaniy meros borasidagi salohiyatini oshirish» pilot loyiha asosida 2012-2014 yillarda tadqiqot va amaliy ishlar olib borilib, 6 sinf o'quvchilariga mo'ljallangan ikki yo'nalish («Xalq o'yinlari» va

Xalq qo‘shlari») bo‘yicha ikkita uslubiy va ikkita o‘quv qo‘llanmalari 3 tilda (o‘zbek, rus va ingliz) tayyorlandi va chop etilib, Respublika maktablariga tarqatildi.

Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo‘yicha xalqaro Konvensiya talablaridan kelib chiqib, maktab o‘qituvchilarining malaka oshirish kurslari, o‘quv rejalari va dasturlariga nomoddiy madaniy merosni o‘rganishga bag‘ishlangan “Nomoddiy madaniy merosni o‘rganish”, “Nomoddiy madaniy meros va biz” kabi mavzular kiritildi. Xalq ta’limi xodimlarining malakasini oshirish o‘quv dasturlari mazmuniga nomoddiy madaniy merosni asrab-avaylash, ularni muhofaza qilishga oid mavzular kiritilgan. Xususan, A.Avloniy nomidagi xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish markaziy instituti hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahar va viloyatlar pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutlari tinglovchilariga maxsus dasturlar asosida nomoddiy madaniy meroslarni asrab-avaylash, ularning barqaror taraqqiyotdagi ahamiyati haqidagi ma’lumotlar berib kelinmoqda.

Shuningdek, YUNESKOning O‘zbekistondagi vakolatxonasi va Xalq ta’limi vazirligi tomonidan “Barqaror taraqqiyot uchun ta’limni kuchaytirish maqsadida pedagoglar orasida nomoddiy madaniy merosning o‘rgatilishini kengaytirish” loyihasi amalga oshirildi. Mazkur loyiha 2016 yilining fevral-may oylarida Xalq ta’limi vazirligi tasarrufidagi filologiya fanlariga ixtisoslashtirilgan davlat umumiy o‘rta ta’lim maktabi va Toshkent shahar Shayxontoxur tumanidagi 41-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabida amalga oshirildi. Ushbu loyihani amalga oshirish orqali nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo‘yicha xalqaro konvensiya talablari asosida o‘quvchilarga nomoddiy madaniy meros haqida to‘g‘ri yo‘nalishlar berish imkoni yaratildi. Shuningdek, mazkur loyihaning amalga oshirilganligi nomoddiy madaniy merosning jamiyatda, xususan, o‘quvchilar o‘rtasida keng tan olinishi, hurmat qilinishi va e’tirof etilishiga sharoitlar yaratdi.

Xalq ta’limi vazirligi tomonidan “Yoz-2017” yoz mavsumida bolalarning statsionar va kunduzgi sog‘lomlashtirish oromgohlari faoliyatini tashkil etish

bo'yicha metodik qo'llanma tayyorlandi va 2000 nusxada chop etilmoqda. Ushbu qo'llanmada o'quvchilar uchun o'zbek milliy xalq o'yinlaridan namunalar kiritilgan. "Barkamol avlod" respublika bolalar markazlari tomonidan nomoddiy-madaniy merosni asrashga qaratilgan respublika tadbirlarini o'tkazish rejalashtirilgan.

Shuningdek, Yoshlar ijod saroyida o'quvchi-yoshlar o'rtasida 9 ta, ya'ni "Tasviriy san'at", "Liboslar dizayni", "Munchoqli bezak", "Badiiy to'qish", "Do'ppido'zlik", "Gilamdo'zlik", "Kulolchilik", "Yumshoq o'yinchoq va qo'g'irchoqlar" va "Yog'och o'ymakorligi" yo'nalishlarida "Barkamol avlod" bolalar ijodiyoti festivali o'tkazildi. Ushbu festivalda 126 nafar o'quvchilar 2500 dan ortiq ijodiy ishlari bilan qatnashdilar.

Yoshlarni nomoddiy madaniy meros bo'yicha materiallar to'plash va targ'ibot ishlariga jalb etish maqsadida bugungi kunda respublikadagi 211 ta "Barkamol avlod" bolalar markazlarida nomoddiy madaniy merosni targ'ib qilishga oid to'garaklar tashkil etilgan. Jumladan, "Barkamol avlod" bolalar markazlarida *xalq amaliy san'ati yo'nalishida* "Kulolchilik" 14 ta, "Duradgorlik" 35 ta, "Yosh musavvir" 333 ta, "Mayda plastika" 52 ta, "To'qish" 372 ta, "Do'ppiduzlik", 46 ta "Gilamduzlik" 17 ta, "Zargarlik" 17 ta, *Badiiy nafosat yo'nalishida* "Folklor" 152 ta, O'zbek xalq raqslari 112 ta, "Qo'g'irchoq teatri" 53 ta to'garaklar tashkil etilgan bo'lib, ularga jami 26 553 nafar o'quvchi-yoshlar jalb qilingan.

O'quvchi-yoshlarni milliy urf odatlarimiz, an'analarimizga hurmat, ona Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularda vatanparvarlik ruhini shakllantirish maqsadida "Orasta qizlar" ko'rik-tanlovi o'tkazildi. Shuningdek, nomoddiy madaniy merosni saqlash va uni yoyish maqsadida "San'at g'unchalari" xalqaro ko'rik-tanlovi, "Mahallamiz tarixini o'rganamiz", "Siz polvonlaringizni bilasizmi?" nomli ko'rik-tanlovlar tashkil etildi.

YUNESKONing Bangkok ofisi tomonidan e'lon qilingan pilot loyiha natijalari bo'yicha 6-sinf Musiqa madaniyati faniga "Muchal to'yi" marosimi bilan bog'liq 12 ta xalq qo'shiqlari hamda Jismoniy tarbiya faniga 12 ta milliy o'yinlar kiritilgan.

Shuningdek, 6-sinfning 1-chorak 7-dars "Surxondaryo va Qashqadaryo mumtoz musiqasi" mavzusida "Binafshalar ochildi, oh bolajon", "Muchal qo'shiqlari", 2-chorak 11-12 dars "Folklor musiqasi" mavzusida "Sadaqa-satig'ing bo'lay", "Kayvoni", "Chuchvara qaynaydi", "Xo'p bo'пти, ajab bo'пти" nomli o'zbek xalq qo'shiqlari kiritildi.⁷

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. O'zDSMI "Xalq ijodiyoti" ta'lim yo'nalishida "O'zbekiston nomoddiy madaniy merosi" fani o'qitilmoqda. Mazkur fan bo'yicha fan dasturi, o'quv uslubiy majmua va o'quv qo'llanma tayyorlangan. Ixtisoslik yo'nalishlaridan kelib chiqib, fan 3 semestrda 5 semestrgacha o'qitilmoqda. O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti "Xalq ijodiyoti va an'anaviy qo'shiqchilik" kafedrasida amaliy tadqiqotlar yo'nalishi bo'yicha olib borilgan loyiha nihoyasiga yetkazildi va nomoddiy madaniy merosni o'rganishga bag'ishlangan multimedia o'quv qo'llanmasi tayyorlandi.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti professorlari tomonidan 2012-2015 y. "Folklor san'ati va etnomadaniy qadriyatlar", 2015-2017 "Nomoddiy madaniy meros va folklor ijrochiligi san'ati" nomli grantlar amalga oshirildi. Shuningdek, 2015-2017 "Nomoddiy madaniy merosning tabiat va koinotga oid bilim va urf-odatlarin ta'limga singdirish" kabi loyihalar ham aynan nomoddiy madaniy meros yo'nalishiga qaratilgan.

Oliy ta'lim muassasasi qoshida faoliyat ko'rsatayotgan O'qituvchilar malakasini oshirish va qayta tayyorlash Tarmoq markazida doimiy asosda

⁷ Халқ таълими вазиригининг 2017 йил Ахборотномасидан фойдаланилди.

“Musiqiy ta’lim” yo‘nalishi bo‘yicha kurslar tashkil etilgan. Ularning o‘quv rejasiga “Nomoddiy madaniy meros ta’lim tizimida” predmeti kiritilib, ushbu predmetni o‘qitishga respublikadagi yetakchi mutaxassislar va ekspertlar jalb etildi.

Muassasaning professor-o‘qituvchilari tomonidan tayyorlanayotgan o‘quv qo‘llanmalarni takomillashtirish ishlariga joylardagi nomoddiy madaniy merosni saqlovchi va yetkazuvchilar jalb etilmoqda.

O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida tegishli o‘quv dasturlarini tayyorlash va ta’lim jarayoniga nomoddiy madaniy merosni yaxshi biladigan mutaxassislarni jalb etish ishlari yo‘lga qo‘yilgan. “Madaniy va arxeologiya merosi ob’ektlarini muhofaza qilish, saqlash va ulardan foydalanish mutaxassisi” kasbining amaldagi o‘quv dasturlari soha mutaxassislari bilan hamkorlikda tahlil qilindi. Tahlil natijalariga ko‘ra yangi mavzular kiritilib, dasturlar mazmuni takomillashtirilib, ta’lim muassasalariga yetkazildi.

“Xalq ijodiyoti” ta’lim yo‘nalishining “Folklor-etnografik jamoalariga rahbarlik” ixtisosligida ta’lim olayotgan talabalar yozgi ta’til davrida o‘zlari istiqomat qilayotgan hududga xos folklor qo‘shiqlarini yozib olib kelishi belgilangan. Xususan, 2017 yil yoz oylarida shu bo‘limning 23 nafar talabarlari tomonidan to‘plangan ma’lumotlarni qayta ishlash va umumlashtirish jarayoni olib borilmoqda.

Yoshlarni nomoddiy madaniy meros bo‘yicha materiallar to‘plash va targ‘ibot ishlariga jalb etish maqsadida institut Markaziy Osiyo xalqlari tarixi kafedrasida iqtidorli talabarlari tarkabidan guruhlar shakllantirilgan. Oliy ta’lim muassasalarida iqtidorli talabalar markazida guruh a’zolarining har haftada bir marotaba yig‘ilishi bo‘lib o‘tmoqda.

O‘zbekiston davlat konservatoriyasining ijtimoiy- gumanitar fanlar kafedrasida “Ajdodlar merosi” nomli to‘garak a’zolari tomonidan targ‘ibot guruhi

tashkil etilgan. Yoshlar Ittifoqi bilan hamkorlikda bir qator targ'ibot – tashviqot ishlari olib borilmoqda.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarida 2009 yildan buyon muntazam "Barhayot an'analar" folklor festival-tanlovi o'tkazilib kelinmoqda. 2009-2016 yillar davomida tanlovning Respublika bosqichida jami 2000 nafarga yaqin o'quvchi-yoshlar ishtirok etdi. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazining 2016 yil 19 apreldagi 104 sonli buyrug'iga asosan 2017 yilning iyul oyida "Barhayot an'analar" folklor festival-tanlovi o'tkazilib, uning hududiy bosqichlarida 38 mingdan ziyod o'quvchilar ishtirok etishdi.

Nomoddiy madaniy meros muhofazasi bilan bog'liq magistrlik dissertatsiyalari himoya qilinmoqda, talabalarining an'anaviy ilmiy anjumanlari uchun ma'ruzalar tayyorlanmoqda. TDSHI magistrleri va talabalarining ilmiy maqolalari va tezislari 2015 yil davomida O'zDSMI tomonidan tayyorlangan va "Fan va texnologiya" hamda "Navro'z" nashriyotlarida chop etilgan "Uzluksiz ta'lim – kadrlar tayyorlashning asoslari" va "Nomoddiy madaniy meros va etnomadaniy qadriyatlar" to'plamlarida chop etildi. Musiqa, madaniyat va san'at ta'lim yo'nalishlarida o'qiyotgan talabalarining nomoddiy madaniy meros borasidagi tadqiqotlarni qo'llab quvvatlash maqsadida ushbu yo'nalishdagi eng yaxshi tadqiqot va maqolalar jamlab kelinmoqda. Yoshlarning ilmiy izlanishlari natijasi bo'lgan materiallar bepul chop etilishi yo'lga qo'yilgan.

Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha hududiy dasturlar asosida nomoddiy madaniy meroslarini keng targ'ib qilishga yo'naltirilgan festivallar va xalq sayllarini o'tkazilishi yo'lga qo'yildi. Jumladan, Buxoro viloyatida "Ipak va ziravorlar" festivali, Jizzax va Farg'ona viloyatlarida "Asal bayrami" kabi tadbirlar har yili an'anaviy tarzda o'tkazilmoqda.

Respublikamizning barcha hududlarida Navro‘z bayrami doirasida milliy taomlar namoyishiga xorijiy sayyohlar tashrifi tashkil etilmoqda. Shuningdek, Toshkentda har yili an’anaviy tarzda o‘tkaziladigan “Dam olish dunyosi” ko‘rgazmasi doirasida taomlar festivali o‘tkazilishi an’anaga aylangan. Xususan, Parkent tumanida yetishtirilgan uzumlardan tayyorlangan sharoblar ko‘rgazmasi va xorijlik sayyohlarni bevosita Parkent tumaniga borib, sharoblarning tayyorlanish jarayoni bilan tanishuv tashkil etilishi an’anaviy yo‘lga qo‘yildi.

Hokimiyat organlari tomonidan Sirdaryo viloyatida “Mirzacho‘l qovunlari sayli”, Jizzax viloyatida “Mevalar va zirovorlar sayli”, Xorazm viloyatida “Xorazm qovunlari sayli”, Toshkent va Farg‘ona viloyatlarida “Uzum sayli” kabi tadbirlar an’anaviy tarzda o‘tkazib kelinmoqda.

Xorazm qovunchiligi keng targ‘ib etilgan ushbu ko‘rgazmada mahalliy va xorijiy sayyohlar e‘tiborini qaratish va sayyohlar oqimini oshirish maqsadida Urganch shahrida an’anaviy “Guvrak – Xorazm qovunchiligi ramzi” savdo ko‘rgazmasi o‘tkazildi. Mazkur tadbir doirasida poliz va mevali bog‘ mahsulotlari ham namoyish etildi. Tadbirda tumanlardan kelgan folklor etnografik jamoalar va yosh san’atkorlarning chiqishlari, Ogahiy nomidagi viloyat dramatik teatri va viloyat qo‘g‘irchoq teatri aktyorlari tomonidan qovun sayliga bag‘ishlab tayyorlangan maxsus teatrlashtirilgan tomoshalar namoyish qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 27 dekabrda 01-14/129-sonli bayoni asosida 2011-2012 yillar davomida respublikamizning barcha hududlarida turizm sohasidagi xizmatlar turlarini ko‘paytirish va ularning eksport salohiyatini rivojlantirish bo‘yicha manzilli chora-tadbirlar dasturlari amalga oshirilib, Boysun, Nurota, Chust, Karmana va Sherobod tumanlari turistik marshrutlarga kiritildi. Bugungi kunda mazkur marshrutlar bo‘ylab tarixiy-tanishtiruv ekskursiyalari keng tarzda amalga oshirib kelinmoqda.

Shuningdek, hozirgi kunda hududlarda turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha dasturlar ishlab chiqilmoqda. Mazkur loyihalarda yuqoridagi hududlar bo'ylab keng tarzda etnografik va ekoturizm yo'nalishlarida ekskursiyalar tashkil qilish yuzasidan tadbirlar belgilangan.

Jumladan, Navoiy viloyati hokimining 2017 yil 9 martdagi "Nurota tumanida turizm sohasini yanada rivojlantirish hamda tuman markazida shaharsozlik sohasida amalga oshiriladigan kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-62-sonli qarori asosida Nurota tumani turizm sohasini rivojlantirish chora-tadbirlar dasturi qabul qilindi. Dastur doirasida turizm infratuzilmasini yanada rivojlantirish, shuningdek turistik mahsulotni targ'ib qilish ishlari amalga oshirilmoqda. Qizilqum cho'llarida o'tovlar tiklab, faoliyat ko'rsatayotgan to'rtta turistik markazlar ayni vaqtda milliy urf-odatlar, an'analarni ham namoyish etish orqali ko'pchilikning e'tiborini qozondi. Navoiy viloyatining Nurota tumani o'zining ajoyib geografik joylashuvi, cho'l va tog'liklarda yashovchi mahalliy aholisi turmush tarzida ko'p asrlik an'analarni saqlab qolgan va bu etnografik jihatdan qiziqarli. Hunarmandchilikning o'ziga xos rivoji, xonadonlardagi gilamdo'zlik, kashtachilik dastgohlari va ularda ishlayotgan hunarmandlar faoliyati asosida turistik yo'nalishlar yo'lga qo'yilgan.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 27 apreldagi "Boysun bahori" festivaliga tayyorgarlik ko'rish va uni yuqori saviyada o'tkazish masalalari haqidagi 73-sonli bayoniga asosan, joriy yilning 13-14-may kunlari Surxondaryo viloyatining Boysun tumanida "Boysun bahori" festivali yuqori saviyada tashkil etildi hamda ushbu festivalga sayyohlar jalb etildi.

Rishton tumanida kulolchilik (mart), Boysun tumanida "Boysun bahori" (may), Kitob tumanida "Umidbaxsh navolar" (may) kabi o'ndan ortiq musiqa cholg'ulari, an'anaviy milliy kiyimlar va shu kabilarni targ'ib etishga qaratilgan tadbirlar o'tkazildi. Turistik dasturlarni yanada boyitish, xorijiy va mahalliy turistlarning mazmunli dam olishini ta'minlash va milliy bayramlarimiz va madaniyatimizni

keng targ'ib etilishini ta'minlash maqsadida, Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi tomonidan muntazam ravishda respublikamizda faoliyat yurituvchi barcha sayyohlik kompaniyalarga "Navro'z" bayrami arafasida uyushtiriladigan turistik dasturlar doirasida turistlarning bayram sayllariga tashrifini uyushtirish yuzasidan tavsiyalar berib kelinmoqda.

Hududiy dasturlar loyihalarida turli festival va sayllar o'tkazilishi belgilangan bo'lib, ular doirasida «Shashmaqom», «Askiya», «Katta ashula», «O'lan», «Dostonchilik», «Baxshichilik», «Lapar», «Tanavor», masxarabozlik, dorbozlik, qo'g'irchoqbozlik, «Ko'pkari», turli xalq o'yinlari, o'zbek raqslari singari nomoddiy madaniy merosimiz durdonalarini keng targ'ib qilishga yo'naltirilgan tadbirlar o'tkazilishi nazarda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 2 dekabdagi "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 4861-sonli Farmoni hamda turizm sohasini rivojlantirishga qaratilgan boshqa hujjatlarga muvofiq respublikamizning barcha hududlarida turizm sohasini keng rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilib, turistlarning milliy hunarmandchilik mollari, musiqa cholg'ulari, an'anaviy milliy kiyimlar va shu kabilar bilan tanishtirish, bu mahsulotlarni sayyohlarga targ'ib qilish ishlari doimiy tarzda tashkillashtirib kelinmoqda.

Har yili oktyabr oyida o'tkaziladigan "Ipak yo'lida turizm" nomli Toshkent xalqaro sayyohlik ko'rgazmasi doirasida folklor dastalarining chiqishlari, o'zbek milliy kiyimlari namoyishi yo'lga qo'yib borilmoqda.

Shuningdek, har yili Buxoro shahrida an'anaviy tarzda "Ipak va ziravorlar" festivali o'tkaziladi. Unda kulolchilik, minatyura, mis kandakorligi, kashtachilik, ipak gilam, atlas va adras to'qish, temirchilik, zardo'zlik jarayonlari mahorat namoyishi; O'zbekiston va xorijlik hunarmandlarning ipakdan tayyorlangan mahsulotlar va ziravorlar savdosi; Buxoro mis-kandakorlik maktabining mahorat

namoyishi, kashtachilik, kashta tikish jarayonlari namoyishi; ipak gilam, atlas va adras to‘qish jarayonlari mahorat namoyishi; temirchilik, zardo‘zlik jarayonlari mahorat namoyishi o‘tkaziladi.

“2013-2015 yillarda Xorazm viloyatida turizm sohasini rivojlantirish dasturi” doirasida Xiva shahrida turistlarni milliy hunarmandchilik san’ati bilan tanishtirish maqsadida, bir necha hunarmandlar markazlari tashkil etildi.

Xorijiy va mahalliy sayyohlarning qiziqish va e’tiborlarini tortuvchi xalq amaliy san’ati durdonalari – sovg‘alar tayyorlash bo‘yicha ishlab chiqarish tizimi shakllantirilgan, bu borada 500 dan ortiq korxonalar ishlab chiqargan sovg‘alar (suvenir mahsulotlari) dunyo bo‘ylab tarqalmoqda.

Turizm sohasini rivojlantirish bo‘yicha qabul qilingan hududiy dasturlar doirasida yoshlarning mamlakatimizning tarixiy shaharlariga ommaviy sayohatlarini uyushtirish va ularning respublikamiz tarixi, boy madaniy merosi va hududlarning o‘ziga xos urf-odatlarini bilan tanishtirish bo‘yicha muayyan tadbirlar belgilangan.

O‘zbekiston yoshlar ittifoqi, Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi hamda boshqa manfaatdor tashkilotlar o‘rtasida “Keksa avlod vakillari hamda “Mehribonlik” uylari, maxsus maktab-internatlar tarbiyalanuvchilari, “Sahovat” uylarida yashovchi yakka-yolg‘iz qariyalar va ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar farzandlarini yurtimizdagi tarixiy obidalar, ziyoratgohlar va muqaddas qadamjolariga sayohatlarini tashkil etish to‘g‘risida”gi qo‘shma qarori imzolandi. Ushbu Qo‘shma qaror doirasida respublikamizning barcha hududlari bo‘ylab o‘quvchi-talabalar o‘rtasida madaniy meros na’munalari bilan yaqindan tanishtirish maqsadida uchrashuvlar tashkil etilmoqda.⁸

“O‘zbekkino” milliy agentligi. Agentlik buyurtmasi bilan baxshichilik siklida “Bir aktyor teatri”, “Yuragimning tori do‘mbiram”, yog‘och o‘ymakorligi siklida “Usta”, “Yosh hunarmand”, Tabiat va koinot bilan bog‘liq bilim va ko‘nikmalar

⁸ Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasining 2017 yil Axborotnomasidan foydalaniildi.

siklida “Oy taqvimi”, Katta ashula yo‘nalishida “Iz”, folklor yo‘nalishida “Ayol qalbidagi musiqa”, “Qadimiy madaniyat o‘choqlari” siklida “Qadriyatlar qadrlangan yurt”, “Qoratog‘ sirlari”, “Xiva afsonasi”, “Shahrisabz – qadimiy, betakror, navqiron” nomli hujjatli filmlar yaratildi. Shuningdek, nomoddiy ma’naviy meros namunalariga asoslangan **“No‘xatpolvon”** to‘liq metrajli animatsion multfilmining dastlabki 1-2-3 qismlari ishlab chiqildi. Multfilm 4-5-6-7-8-9 qismlarining ssenariysi tasdiqlanib, ishlab chiqarishga tushirildi.

Shu bilan birga, muallif R.Jabborov ssenariysi asosida **“Qari bilganni-pari bilmas”** multiplikatsion film suratga olish ishlari yakunlandi.

O‘tgan davr mobaynida milliy ertaklar asosida **“Kenja botir”** hamda **“Salimbek va ertak qahramonlari”** nomli multfilmlar ishlab chiqarishga tushirildi. Yaratilgan hujjatli filmlar Respublika bo‘ylab joylarda o‘tkazilayotgan turli tadbirlarda, shuningdek, badiiy filmlar taqdimoti oldidan namoyish etilmoqda, ta’lim muassasalariga shartnoma asosida yetkazib berilmoqda.

“Hunarmand” uyushmasi. O‘zbekiston Respublikasi xalq ustalari, hunarmandlari, musavvirlari, “Hunarmand” Uyushmasi a‘zolari yakka tartibda faoliyat yuritayotgan holda 2016 yilda 99162,8 mln so‘mlik, 2017 110070576 mln so‘mlik xalq amaliy san’ati va milliy hunarmandchilik mahsulotlari ishlab chiqarildi va sotildi. 2016 yilga nisbatan 2017 yilda 10907,8 mln so‘mlik mahsulot ko‘p ishlab chiqarilgan. Natijada o‘shish sur’ati 111 % ni tashkil etdi.

“O‘zbekiston” xalqaro anjumanlar saroyida hamda Uz EKSPo markaz binosida milliy hunarmandchilik ko‘rgazmalari tashkil etildi. Ko‘rgazmalarda namoyish etilgan milliy hunarmandchilik mahsulotlari mehmonlarda katta qiziqish uyg‘otdi. Shuningdek, uyushma Madaniyat vazirligi tomonidan 2017 yilda tashkil

etilgan festivallarda xalq amaliy san'ati va milliy hunarmandchiligi mahsulotlari ko'rgazmalarini tashkil etdi.⁹

II BOB. Nomoddiy madaniy merosni targ'ib qilishning huquqiy asoslari va istiqbollari

2.1. Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, asrash va targ'ib qilishga qaratilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar

Bugungi kunga qadar nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, asrash va targ'ib qilishga qaratilgan bir qator xalqaro va milliy me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Quyida mazkur hujjatlarning mazmun-mohiyatiga atroflicha to'xtalib o'tamiz:

“Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo'yicha xalqaro konvensiya” (2003 yi 17 oktyabr Parij). Ushbu konvensiyadan ko'zlangan maqsadi:

- a) nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish;
- b) tegishli hamjamiyatlar, guruhlar va alohida shaxslarga mansub nomoddiy madaniy merosni hurmat qilish;
- c) nomoddiy madaniy merosning muhimligiga va mahalliy, milliy va xalqaro miqyosda uning umum tomonidan tan olinishiga e'tiborni jalb qilish;

⁹ “Ўзбеккино” миллий агентлигининг 2017 йил Ахборотномасидан фойдаланилди.

d) xalqaro hamkorlik va yordam ko'rsatish.¹⁰

Konvensiyaning 3-moddasiga muvofiq "muhofaza" so'zi quyidagicha talqin qilingan:

"Muhofaza" so'zi nomoddiy madaniy meros hayotiyligini ta'minlash, shu bilan birga, uni identifikatsiyalash, hujjatlashtirish, tadqiq qilish, saqlash, himoya qilish, ommalashtirish, rolini oshirish, targ'ib qilish choralari, asosan rasmiy va norasmiy ta'lim yordamida amalga oshirish hamda bunday merosning turli jihatlarini qayta barpo etish degan ma'noni anglatadi.

Konvensiyaga ko'ra YUNESKO qoshida Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo'yicha hukumatlararo qo'mita tashkil etiladi va u quyida "Qo'mita" deb yuritiladi. Qo'mita Konvensiya kuchga kirganidan so'ng, uning 34-moddasiga muvofiq Bosh assambleyada ishtirokchi-davlatlar tomonidan saylangan 18 ta ishtirokchi-davlat vakillaridan iborat bo'ladi. Agar Konvensiya ishtirokchi-davlatlari soni 50 taga yetsa, Qo'mitaga a'zo-davlatlar soni 24 tagacha oshiriladi.

Qo'mitaning funksiyalari quyidagilardan iborat:

a) Konvensiya maqsadlariga erishishga ko'maklashish, uning amalga oshirilishini nazorat qilish va qo'llab-quvvatlash;

b) ilg'or amaliyotga oid maslahatlar berish va nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish choralari bo'yicha tavsiyanomalar tayyorlash;

c) 25-moddaga muvofiq Jamg'arma mablag'idan foydalanish rejasi loyihasini tayyorlash va uni Bosh Assambleyaga tasdiqlash uchun taqdim etish;

d) Jamg'arma zaxiralarini oshirish va shu maqsadda 25-moddaga muvofiq zarur choralarni ko'rish;

¹⁰ Номоддий маданий меросни муҳофаза қилиш бўйича халқаро конвенция, 1-модда, 2003 йи 17 октябрь Париж

e) Konvensiyani amalga oshirish bo'yicha tezkor ko'rsatmalar tayyorlab, Bosh assambleyaga tasdiqlash uchun taqdim etish;

f) 29-moddaga muvofiq ishtirokchi-davlatlar hisobotini muhokama qilish va ularning muxtasar taqrizini Bosh assambleyaga taqdim etish;

g) Ishtirokchi-davlatlar taqdim etgan arizalarni ko'rib chiqish va Qo'mita tomonidan o'rnatilgan va Bosh assambleya tasdiqlagan tanlovning ob'ektiv mezonlariga muvofiq tegishli qarorlarini quyidagilar asosida qabul qilish:

(i) 16-, 17-, va 18-moddalarda qayd etilganiga muvofiq arizalarni va takliflarni ro'yxatga olish.

(ii) 22-moddaga muvofiq xalqaro yordam ko'rsatish.

Konvensiyaning 29-moddasiga ko'ra ishtirokchi-davlatlar, Qo'mita tomonidan belgilangan shaklda va davriylikda, mazkur Konvensiyani amalga oshirish maqsadida o'zlari tomonidan qabul qilingan qonunchilik va tartibga soluvchi nizomlar yoki boshqa chora-tadbirlar to'g'risidagi hisobotlarini Qo'mitaga taqdim etib boradilar.

O'zbekiston Respublikasining "Madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida" 2001 yil 30 avgustdagi qonuni. Ushbu Qonunning maqsadi O'zbekiston xalqining umummilliy boyligi bo'lmish madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Nomoddiy madaniy meros ob'ektlarining ro'yxati nomoddiy madaniy meros ob'ektlari to'g'risidagi yangilanib turiladigan ma'lumotlar ko'rsatilgan hisobga olish hujjatidan iborat bo'ladi.

Qonunga muvofiq nomoddiy madaniy meros ob'ektlarining ro'yxatini yuritishga quyidagilar kiradi:

nomoddiy madaniy meros ob'ektini identifikatsiya qilish;

tegishli nomoddiy madaniy meros ob'ektlarining tarmoqlari, yo'nalishlari, janrlari va uslublarini tasniflash;

nomoddiy madaniy meros ob'ektlarini doimiy ravishda tiklovchi shaxslarni, guruhlarini ko'rsatish;

ma'lumotlarni tizimga solish, saqlash va yangilab borish;

nomoddiy madaniy meros ob'ektlarining sifat holatini aniqlash va uning natijalari bo'yicha hisobotlar tuzish.¹¹

Tarix, san'at, fan, estetika, etnologiya yoki antropologiya nuqtai nazaridan har tomonlama beqiyos qimmatga ega bo'lgan madaniy meros ob'ektlari Umumjahon madaniy va tabiiy merosini muhofaza qilish to'g'risidagi Konvensiya hamda Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish to'g'risidagi xalqaro Konvensiyada belgilangan tartibda tegishlicha Umumjahon madaniy merosi ro'yxatiga yoki Insoniyat nomoddiy madaniy merosining Rerezentativ ro'yxatiga kiritish yo'li bilan jahon madaniy merosi ob'ektlari jumlasiga kiritilishi mumkin.

Madaniy meros ob'ektlari tarixiy-madaniy ekspertizasining xulosasi asosida madaniy meros ob'ektlarini Umumjahon madaniy merosi ro'yxatiga yoki Insoniyat nomoddiy madaniy merosining Rerezentativ ro'yxatiga kiritish to'g'risidagi takliflar hamda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti (YUNESKO) huzuridagi Umumjahon merosi qo'mitasi va Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo'yicha hukumatlararo qo'mita talablariga muvofiq rasmiylashtirilgan hujjatlar yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan O'zbekiston Respublikasining YUNESKO ishlari bo'yicha Milliy komissiyasiga yuboriladi.

¹¹ Ўзбекистон Республикасининг "Маданий мерос объектларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланиш тўғрисида" 2001 йил 30 августдаги қонуни, 11-модда

Nomoddiy madaniy meros ob'ektlarini asrash chora-tadbirlari ilmiy va ilmiy-texnik tadqiqotlar, hujjatlashtirish, targ'ib qilish va rag'batlantirish ishlarini o'z ichiga oladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 7 oktyabrdagi 222-son qarori. Ushbu qaror bilan "2010-2020 yillarda nomoddiy madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish, asrash, targ'ib qilish va ulardan foydalanish Davlat dasturi" tasdiqlangan. Unga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi Davlat dasturini amalga oshirish bo'yicha asosiy ijrochi sifatida belgilanib, unga:

Davlat dasturi monitoringini yuritish;

muntazam ravishda har bir yil yakunida amalga oshirilgan ishlar bo'yicha Vazirlar Mahkamasiga hisobotlarni taqdim etish;

Respublika xalq ijodiyoti va madaniy-ma'rifiy ishlar ilmiy-metodik markazining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash;

O'zbekiston Respublikasining nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish borasida har olti yilda YUNESKOga taqdim etiladigan hisobotlarini tayyorlash vazifalari yuklandi.

2010-2020 yillarda nomoddiy madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish, asrash, targ'ib qilish va ulardan foydalanish Davlat dasturi ijrosining asosiy yo'nalishlari:

- Nomoddiy madaniy merosni saqlash, muhofaza qilish va kelajak avlodga yetkazishga qaratilgan normativ-huquqiy bazani hamda ma'muriy boshqaruv tizimini takomillashtirish;
- Nomoddiy madaniy merosni ilmiy jihatdan o'rganish va tadqiqot ishlarini tashkil etish;

- Nomoddiy madaniy merosni ro'yxatga olish va ular to'g'risidagi ma'lumotlarni hujjatlashtirish;
- Soha mutaxassislarini tayyorlash va malaka oshirish ishlarini tashkil etish;
- Nomoddiy madaniy meros ob'ektlarini saqlashning amaliy chora-tadbirlari;
- Nomoddiy madaniy merosni saqlash va uning muhofazasini tashkil etish bo'yicha olib boriladigan targ'ibot-tashviqot ishlari;
- Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish borasida hamkorlik tarmog'ini rivojlantirish;
- Nomoddiy madaniy meros targ'ibotida madaniy turizm dasturlaridan keng foydalanish;
- Nomoddiy madaniy meros namunalarini saqlashni moliyalashtirish tizimini yanada takomillashtirish.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Nomoddiy madaniy meros muhofazasiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida" 2011 yil 23 fevraldagi 47-son qarori. Ushbu qaror O'zbekiston Respublikasining "Madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi Qonuniga o'zgartishlar kiritish haqida»gi 2009 yil 9 oktyabrdagi O'RQ-228-son Qonunini amalga tatbiq etish hamda Vazirlar Mahkamasining "2010 — 2020 yillarda nomoddiy madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish, asrash, targ'ib qilish va ulardan foydalanish Davlat dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi 2010 yil 7 oktyabrdagi 222-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida qabul qilingan. Qarorga ko'ra nomoddiy madaniy meros ob'ektlarining ro'yxatini yuritish to'g'risidagi nizom hamda nomoddiy madaniy meros ob'ektlarini tarixiy-madaniy ekspertizadan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom tasdiqlangan.

Nomoddiy madaniy meros ob'ektlarining ro'yxatini yuritishga quyidagilar kiradi:

nomoddiy madaniy meros ob'ektini identifikatsiya qilish;

tegishli nomoddiy madaniy meros ob'ektlarining tarmoqlari, yo'nalishlari, janrlari va uslublarini tasniflash;

nomoddiy madaniy meros ob'ektlarini doimiy ravishda tiklovchi shaxslarni, guruhlarni ko'rsatish;

ma'lumotlarni tizimga solish, saqlash va yangilab borish;

nomoddiy madaniy meros ob'ektlarining sifat holatini aniqlash va uning natijalari bo'yicha hisobotlar tuzish.¹²

Nizomga ko'ra quyidagi nomoddiy madaniy meros ob'ektlari ro'yxatga olish ob'ektlari hisoblanadi:

o'zlikni namoyon qilishning og'zaki shakl va an'analari (shu jumladan, til – nomoddiy madaniy merosni ifodalash faktori sifatida);

ijrochilik san'ati;

jamiyatning urf-odat, marosim va bayramlari;

tabiat va koinot bilan bog'liq bilim va urf-odatlar;

an'anaviy hunarmandchilik bilan bog'liq bilim va ko'nikmalar;

nomoddiy madaniy merosni namoyon etish bilan bog'liq jihozlar, predmetlar, artefaktlar va madaniy makonlar.

Nomoddiy madaniy meros ob'ektlarining ro'yxatiga quyidagi ma'lumotlar kiritiladi:

ob'ektning ro'yxatdagi tartib raqami;

ob'ektning nomi;

ob'ektni ro'yxatga kiritish bo'yicha taklif kiritgan yuridik va jismoniy shaxslar;

ob'ekt mavjud hudud (yoki hududlar)ning nomlanishi;

ob'ekt namoyon etayotgan soha;

¹² Номоддий маданий мерос объектларининг рўйхатини юритиш тўғрисидаги низом, 3-банд

- ob'ektni o'zida saqlovchilarning nomi va manzili;
- ob'ektning maqsadli vazifasi;
- ob'ekt yuzasidan tarixiy ma'lumotlar;
- ob'ektning hozirgi kundagi ahvoli;
- ob'ekt xususiyatidan kelib chiqib boshqa ma'lumotlar.¹³

Nomoddiy madaniy meros ob'ektlarining ro'yxatiga kiritiladigan nomoddiy madaniy meros ob'ektini o'rganish va hujjatlashtirish ishlari, aksariyat hollarda, ob'ekt joylashgan joyda tashkil etiladi. Bu ishga davlat organlari, ilmiy institut va muassasalar hamda nodavlat notijorat tashkilotlarining vakillari, nomoddiy madaniy merosni asrash va ulardan foydalanish yo'nalishida faoliyat yuritayotgan va tadqiqot ishlarini olib borayotgan alohida tadqiqotchilar va mutaxassislar mustaqil ekspertlar sifatida jalb etilishi mumkin. Bunda, Markaz belgilangan tartibda mustaqil ekspertlar bilan shartnomalar tuzadi.

Insoniyat nomoddiy madaniy merosining Rerezentativ ro'yxatiga kiritilishini asoslovchi materiallarni rasmiylashtirish shaklini to'ldirish mezonlari:

1. Ob'ekt Nomoddiy madaniy meros ob'ektlarining ro'yxatini yuritish to'g'risidagi nizomiga ko'ra aniqlangan nomoddiy madaniy meros tushunchasiga muvofiq bo'lishi lozim.
2. Ob'ektni muhofaza qilish tadbirlari jamoa, guruh yoki shaxslar ishtiroki va ularning roziligi bilan amalga oshirilishi lozim.
3. Mualliflik huquqi milliy qonunchilikka muvofiq himoya qilinishi kerak.
4. Quyidagilar:

ilmiy tadqiqotlar asosida tasdiqlangan ma'lumotnomalar (ilmiy risolalar, muzey va kutubxonalarda mavjud bo'lgan ma'lumotlar, anjumanlar va ekspeditsiyalar natijalari);

¹³ Номоддий маданий мерос объектларининг рўйхатини юритиш тўғрисидаги низом, 12-банд

davlatning madaniy siyosatida (shu jumladan markaziy va mahalliy hokimliklar tomonidan) qabul qilingan hujjatlar (qaror nusxalari, festivallar va tanlovlar natijalari bo'yicha ma'lumotlar);

davlat nodavlat tashkilotlari va muassasalari tomonidan amalga oshirilayotgan tadbirlar to'g'risidagi ma'lumotlar;

ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan ishlar (o'quv dasturlari bo'yicha hujjatlar);

ommaviy axborot vositalarida maxsus dasturlar orqali keng namoyish etilgan namunalar (audio-video hujjatlar) ilova etilishi lozim.

Nomoddiy madaniy meros ob'ektlarini tarixiy-madaniy ekspertizadan o'tkazish tartibi. Nomoddiy madaniy meros ob'ektlarining tarixiy-madaniy ekspertizasi O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan tashkil etiladi va amalga oshiriladi.

Tarixiy-madaniy ekspertiza ob'ektlariga quyidagilar kiradi:

Tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o'zgacha madaniy qimmatga ega bo'lgan urf-odatlar, xalq ijodiyoti (so'z, raqs, musiqa, tomosha san'ati), shuningdek, ular hamda xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'ati bilan bog'liq bilimlar, ko'nikmalar, asbob-anjomlar, artefaktlar, madaniy makonlar va boshqa Nomoddiy madaniy meros ob'ektlarining ro'yxatiga kiritilishini asoslovchi materiallar va boshqalar.

Tarixiy-madaniy ekspertizani tashkil etish va o'tkazish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- Tarixiy-madaniy ekspertizani tashkil etish O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligining Respublika xalq ijodiyoti va madaniy-ma'rifiy ishlar ilmiy-metodik markazi (keyingi o'rinlarda "Markaz" deb yuritiladi) zimmasiga, uni o'tkazish Markaz qoshida tashkil etiladigan Ilmiy-uslubiy kengash (keyingi o'rinlarda "Kengash" deb yuritiladi) zimmasiga yuklanadi.

- Kengash tarkibiga davlat organlari, ilmiy institut va muassasalar, nodavlat, notijorat tashkilotlarning vakillari, nomoddiy madaniy merosni asrash va ulardan foydalanish yoʻnalishida faoliyat yuritayotgan va tadqiqot ishlarini olib borayotgan alohida tadqiqotchilar va mutaxassislar kiritiladi.

Kengash tarixiy-madaniy ekspertizani oʻtkazish jarayoniga mustaqil ekspertlarni jalb etish huquqiga ega.

Kengash faoliyatini tashkil etish:

- Kengash — uning raisi, aʼzolari va kotibdan tashkil topadi. Kengashning tarkibi Oʻzbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.
- Kengash yigʻilishi zaruratga qarab, lekin yarim yilda kamida bir marta oʻtkaziladi.

Kengash tarkibida quyidagi shoʻʻbalar tashkil etiladi:

- Oʻzlikni namoyon qilishning ogʻzaki shakl va anʼanalari;
- Ijrochilik sanʼati;
- Urf-odat, marosim va bayramlar;
- Tabiat va koinot bilan bogʻliq bilim va urf-odatlar;
- Anʼanaviy hunarmandchilik bilan bogʻliq bilim va koʻnikmalar.

Tarixiy-madaniy ekspertiza Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan hujjatlar asosida amalga oshiriladi.

Hujjatlarni kotib qabul qilib oladi va Kengash raisiga taqdim etadi. Kengash raisi bu hujjatlarni tegishli shoʻʻbaga yuboradi. Kengash shoʻʻbalari hujjatlarni bir oygacha muddatda koʻrib chiqishi shart.

Tarixiy-madaniy ekspertiza, zaruratdan kelib chiqib, nomoddiy madaniy meros obʼekti joylashgan joyda ham tashkil etilishi mumkin.

Kengash shoʻʻbalari tarixiy-madaniy ekspertiza xulosasining loyihasini tayyorlaydi va barcha hujjatlarni ilova etgan holda Kengash raisiga taqdim etadi.

Kengash yig'ilishi uning a'zolaridan uchdan ikki qismi qatnashganda vakolatli hisoblanadi. Kengash qarori oddiy ko'pchilik ovoz berishi orqali qabul qilinadi. Ovozlar teng bo'lganda, raisning ovozi hal qiluvchi kuchga ega.

Kengash qabul qilgan qarorga qo'shilmagan Kengash a'zolari o'z fikrlarini bildirish huquqiga ega.

17. Yig'ilishni tashkil etish, Kengash yig'ilishi bayonini yuritish kotib zimmasiga yuklanadi.

Kengash qarori yig'ilish bayoni bilan rasmiylashtiriladi va raislik qiluvchi hamda kotib tomonidan imzolanadi.

Kengash bayoni qarorga qo'shilmagan Kengash a'zolarining yozma fikrlari jamlanib, kotib tomonidan Markazga yo'llanadi.

2.2. Nomoddiy madaniy merosni targ'ib qilishda innovatsion yondashuvlar

Muhtaram Prezidentimiz SH.M.Mirziyoev tashabbuslari va g'amxo'rliklari tufayli folklor san'atini asrab-avaylash, targ'ib qilish, yanada rivojlantirish va kelajak avlodga etkazish masalalariga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Xususan, davlatimiz rahbarining ko'rsatmalari bilan Navro'z umumxalq bayrami sayl

ko‘rinishida tashkil etilib, unda folklor san‘ati dasturlaridan keng foydalanilmoqda. Bundan ko‘rinib turibdiki, milliy folklor san‘ati xalqimizning ma‘naviy qiyofasini, uning hayot tarzini ko‘rsatib beradigan, bir so‘z bilan aytganda, o‘zligini namoyon etuvchi muhim san‘at turlaridan biridir.

So‘ngi yillarda yurtimizda nomoddiy madaniy merosni targ‘ib qilish maqsadida tashkil qilinayotgan folklor festivallari, ko‘rik-tanlov va forumlar yangi bosqichga ko‘tarilib, o‘zgacha mazmun kasb etmoqda. Ularning har birida innovatsion yondashuvlarni ko‘rish mumkin. Quyida ularni tahlil qilib o‘tsak:

“Boysun bahori” folklor festivali. Butun jahonda musiqa va san‘at ixlosmandlari festival bo‘ladigan shaharlarga yo‘l olishadi. «Sharq taronalari», «Boysun bahori» kabi festivallarining targ‘iboti va reklamasini kuchaytirish, uni yuqori saviyada tashkil etish vaqti yetmadimikan? Shu boisdan ham bizning mamlakatimiz san‘atni tarannum etadigan boy moddiy va nomoddiy madaniyat beshigi hisoblanadi. **Boysun madaniy muhiti** ilk bor jahon hamjamiyatlari madaniy ob‘ektlarining 19 nominantlari orasida YUNESKO tomonidan "Insoniyatning og‘zaki va nomoddiy madaniy merosi" sifatida e‘tirof etilgan (2001), 2008 yili esa YUNESKOning "Insoniyatning nomoddiy madaniy merosi" Rerezentativ ro‘yxatiga kiritildi. Bu o‘z navbatida Boysun xalq madaniyati va uning badiiy an‘analarini saqlash va yozib olishda hamda keng ko‘lamda ilmiy tadqiq etish jarayoniga sabab bo‘ldi.

Boysunning musiqa ijodi va ijro san‘ati ikkita yirik janrlar guruhi bo‘lmish, amaliy (alla, mehnat, marosim qo‘shiqlari va cholg‘u kuylari) va noamaliy (lirik va maishiy qo‘shiq va kuylari, maxsus terma, qo‘shiq, lapar va ashula) janrlari tashkil etadi. Hududda yashovchi o‘zbek va tojik xalqlari merosi bo‘lib, ularning o‘zaro lahjaviy ta’sirlari bilan bog‘liq. Bular – Alla, mavsumiy marosim – Muborakbod, Yil boshi, Sumalak, Boychechak, Sust xotin, Choy momo, Ramazon; to‘y marosim – Yor-yor, Kelin salom, Mochai, Arus baron, Salomnoma, mehnat – Mayda, Oblo baraka, Shohmoyilar, Qo‘sh haydash, Xo‘sh-xo‘sh, Turam, Urmak, Yorg‘uchoq.

Xalq epik ijodi –dostonlar do‘mbira jo‘rligida rechitativ-tomoq uslubi (bo‘g‘iq ovoz)da aytilishi sherobod-boysun baxshi-shoirlik maktabiga xos va uning yirik namoyandalari orasida Sherna baxshi va uning shogirdalari bo‘lmish Shoberdi Boltaev (Munchoq qishlog‘i) va Abdunazar Poyonov (Xonkom qishlog‘i)lar – dostonlar va termalar ijrochilari, hozirgi vaqtida "O‘zbekiston xalq baxshisi" unvoniga sazovor bo‘lishgan (ular baxshichilik san‘atini xorij davlatlarida namoyish etmoqdalar).

Aksariyat musiqa ijodi namunalari xalq marosim (udum, urf-odat, rasm-rusum) lari bilan bog‘liq bo‘lib, o‘ziga xos ohanglarda kuylanadi. Ushbu marosimlar hozirgi kungacha Boysun hududida saqlanib kelmoqda. Ular hozirgacha Boysun aholisining ma‘naviy hayotida ahamiyat kasb etmoqda. Boysun folklor san‘ati xalq ijrochilari, "Boysun" folklor xalq ansambli va "Quralay" bolalar folklor ansambllari; xalq hunarlari hunarmandlar tomonidan saqlanib, targ‘ib etilmoqda.

Boysun madaniy muhitini muhofaza qilish, saqlash va targ‘ib etishda, ayniqsa, Boysun fenomeni o‘rganish maqsadida, YUNESKO hamkorligida ilmiy ekspeditsiyalar (2002-2005) uyushtirilib, hududning tarixiy-etnografik xususiyatlari, hayotiy marosim an‘analari, og‘zaki xalq ijodiyoti, musiqa san‘ati, badiiy hunarmandchilik, xalq o‘yinlari va baxshichilik san‘atlariga e‘tibor qaratildi. Ekspeditsiya materialari asosida ikkita yirik monografiya – "Boysun" (Badiiy hunarmandchilik atlas va An‘anaviy musiqa madaniyati, 2006, ingliz va rus tillarida), "Boysun tarixi va an‘anaviy madaniyati" to‘plami (2005), ilmiy anjumanlar to‘plamlari va festival albomi; "Boysun" multimedia va videofilm; "Boysun" folklor ansambli qoshida bolalar "Folklor Akademiyasi" tashkil etildi. Eng katta yutuq – "Boysun bahori" ochiq folklor festivali va uning doirasi Xalqaro ilmiy anjumanlar o‘tkazilishi (2002-2006). YUNESKO hamkorligida "Xalq ijodiyoti markazi" qurildi; uning qoshida "Boysun amaliy san‘ati" muzeyi va hunarmandlar ustaxonasi hamda an‘anaviy "ustoz-shogird" maktablari faoliyat

ko'rsatmoqda. Boysun kulolchiligini tiklash maqsadida kulol Izzatulla Eshonqulovning ustaxonasi qayta ta'minlandi. Festival doirasida xalq amaliy san'ati yarmarkasi, an'anaviy va zamonaviy moda ko'rgazmasi, O'zbek milliy akademik teatri va Surxondaryo viloyati drama teatrlari tomonidan folklor spektakllari namoyish etilib, festivalga yangicha uslubda yondashildi.

Qayd etish kerakki, mazkur festival 2002 yilda o'tkazila boshlangandi. Biroq, bunday ulkan amaliy ahamiyatga ega tadbir 2004 yilga kelib to'xtab qolgan edi.

Prezidentimiz SHavkat Mirziyoev 2016 yilning 17 noyabrida o'zining saylovoldi dasturi doirasida Surxondaryo viloyati saylovchilari bilan uchrashuvda yaxshi an'ana, xalqaro obro'ga ega bo'lishga ulgurgan "Boysun bahori" xalqaro folklor festivalini qaytadan tiklash kerakligi haqida taklif bildirdi.

Prezidentimizning bildirgan ushbu tashabbusi tufayli Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 23 yanvardagi "Surxondaryo viloyati hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi qarori hamda 27 apreldagi Bayoniga muvofiq, 2017 yilning 13-14 may kunlari Surxondaryo viloyatining Boysun tumanida "Boysun bahori" folklor festivali o'tkazilishi belgilandi.

Festivalning ochilish marosimida mamlakatimizda madaniyat va san'atni yanada rivojlantirish, milliy qadriyatlarimizni tiklash, qadimiy merosimizni, xususan, xalq ijodi an'alarini muhofaza qilish, asrab-avaylash va keng targ'ib etishga alohida e'tibor qaratilayotgani ta'kidlandi. Bunday ezgu ishlar ajdodlardan meros bo'lib kelayotgan xalq amaliy san'ati, xalq og'zaki ijodi singari nomoddiy madaniy meros durdonalarining hayotimizdan mustahkam o'rin egallashida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Yosh avlodni Vatanga muhabbat, istiqlol g'oyalariga sadoqat, milliy va umumbashariy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga xizmat qilmoqda.

Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan folklor jamoalarining 200 dan ortiq vakili o'z hududlariga xos liboslar va qadimiy kuy-qo'shiqlar bilan ishtirok etdi.

Nomoddiy madaniy merosimizning eng yorqin va noyob durdonalari o‘rin olgan mazkur dasturlarda xalqimizning azaliy orzu-intilishlari, sadoqat, vafo va mardlik kabi olijanob fazilatlari o‘z ifodasini topgan. O‘tgan yillarda tashkil etilgan festival doirasida xalqimiz tarixi va madaniyatini o‘rganish, uning boy merosini asrab-avaylashga bag‘ishlangan tadbirlar jarayonida tarixchi, arxeolog, filolog, etnograf olimlar, hunarmandlar tomonidan 50 ga yaqin noyob yodgorlik aniqlangan.

Go‘zal tabiat qo‘ynida tashkil etilgan do‘stlik, hamjihatlik va san‘at bayramida Qoraqalpog‘iston Respublikasining “Shu‘la”, Andijon viloyatining “Gulruh”, Buxoro viloyatining “Xo‘jai jahon”, Jizzax viloyatining “Gashtak”, Navoiy viloyatining “Karmana yulduzlari”, Namangan viloyatining “Yallama yorim”, Samarqand viloyatining “Sarbozi”, Sirdaryo viloyatining “Sayxun yigitlari”, Surxondaryo viloyatining “Boysun”, “Jayxun”, Toshkent viloyatining “Shosh navolari”, Toshkent shahrining “Durdona”, Farg‘ona viloyatining “Quva navolari”, Xorazm viloyatining “Avazxon”, Qashqadaryo viloyatining “Rizvongul” kabi folklor jamoalari tayyorlagan maxsus dasturlar barchada katta taassurot qoldirdi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Samarqand, Xorazm, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari baxshi-shoirlari, oqin va jirovlari kuylagan xalq dostonlari, laparu o‘lanlari qadim Boysun tog‘lariga Alpomishu Barchinoylar aytishuvlarini qaytargandek bo‘ldi.

Festivalning maqsadi qadimiy folklor san‘atimiz bilan o‘tmish madaniy yodgorliklarimiz tarixining o‘zaro bog‘liqligi, uzviyligi va ulug‘vorligini, ular buyuk ma‘naviyatimiz sarchashmalari ekanini keng targ‘ib qilishdir.

Bu galgi festival doirasida ilmiy-amaliy konferensiya o‘tkazildi. Kurash va boshqa milliy xalq o‘yinlari tashkil etildi. Poytaxtdan kelgan taniqli san‘atkorlar, estrada xonandalari va “Nihol” mukofoti sovrindorlarining gala-konserti, Surxondaryo viloyati musiqali drama teatrining “Ayol haqida qasida” musiqali folklor spektakli namoyish etildi. Tadbir yakunida folklor jamoalariga diplom va qimmatbaho sovg‘alar topshirildi.

Navbatdagi “Boysun bahori” folklor festivali joriy yilning 28-29 aprel kunlari O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, Surxondaryo viloyati hokimligi va boshqa tashkilotlar hamkorligida tashkil etildi. Alpomish dostonida ta’riflangan “ming uyli Boysun – Qo‘ng‘irot eli” ning o‘tovlari tiklangan yalanglikda festivalning asosiy tantanalari bo‘lib o‘tdi. Tadbirning ilk qismida Boysun osmoni uzra parvoz qilgan ulkan havo sharlari yig‘ilganlarning hayratini oshirdi. Ushub havo sharlarida turistlar festival bo‘ladigan maydonga olib kelindi.

Boysunlik hunarmandlar o‘zlarining qadimiy uslubda yaratgan alifi, janda, olacha matolari va ulardan tikilgan kiyimlar, g‘ajari nomli gilamlarini namoyish qilishgan bo‘lsa, qo‘li gul oshpazlar esa turli xil milliy va bahoriy taomlarni shu erning o‘zida tayyorlab, mehmonlarga ulashdi. Shuningdek, qadimiylik va zamonaviylik uyg‘unligidagi milliy liboslar ko‘rgazmasi, yosh rassomlar va dizaynerlarning ishlari yig‘ilganlarda katta qiziqish uyg‘otdi. Respublika hududlaridan tashrif buyurgan folklor-etnografik jamoalarining qiziqarli konsert dasturlari barchaga bir olam zavq-shavq ulashdi. Shuningdek, qo‘shni respublikalardan ham bir qator san’atkorlar ishtirok etdi.

Shu bilan birga, respublikamiz folklor-etnografik jamoalarining 250 dan ortiq vakili o‘z hududiga xos libos va qadimiy kuy-qo‘shiqalar bilan faol ishtirok etdi. Shuningdek, mahalliy va qo‘shni davlatlar Tojikiston va Afg‘oniston Respublikalarining folklor jamoalari ham ishtirok etdilar. Surxondaryo viloyati folklor jamoalari hamda viloyat musiqali drama teatri teatrlashtirilgan namoyishlari, baxshi-shoir, oqin va jirovlar ijodiy bellashuvi, dizaynerlarning milliy liboslar namoyishi, dorbozlik tomoshalari, “Bolalar shaharchasi”da viloyat qo‘g‘irchoq teatri spektakllari va shou-dasturlari, milliy kurash musobaqalari, milliy xalq o‘yinlari varrak uchirish, arqon tortish, xo‘roz va qo‘chqor urishtirish kabi chiqishlar barchani o‘ziga tortdi.

Milliy liboslar, taomlar hamda yosh rassomlar ijodiy ko‘rgazmalari, shuningdek, O‘zbekiston yoshlar ittifoqi tomonidan turli aksiyalar o‘tkazildi.

Bularning barchasi moddiy va nomoddiy boyliklarimizni keng namoyon etib, turizm, ayniqsa eko va ziyorat turizmini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. “Boysun bahori” ochiq folklor festivali doirasida Termiz davlat universitetida “Boysun – moddiy va nomoddiy madaniyat beshigi” mavzuida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o‘tkazildi.

Mazkur xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada yurtimiz olimlari, mutaxassislari bilan birga Xitoy, Chexiya, Qozog‘iston kabi davlatlardan o‘nga yaqin olim va ilmiy tadqiqotchilar qatnashayotgani ham buning yaqqol tasdig‘idir. Anjuman ishtirokchilari qadim yurt tarixi, nafis va boy madaniy merosining dunyo tamaddunida tutgan o‘rni, shuningdek, Boysun milliy hunarmandchiligi, etnografiyasi va arxeologiyasini o‘rganish, hududda turizmni rivojlantirish bilan bog‘liq masalalarni ilmiy muhokama etdi. Qiziqarli taklif va tavsiyalar bildirildi. Konferensiya ishtirokchilarining ma’ruza va maqolalari alohida to‘plam sifatida chop etildi. Milliy qadriyat va an’analarimiz o‘z aksini keng namoyon etgan kurash musobaqasida mamlakatimizning turli hududlari va qo‘shni davlatlardan kelgan yetti yoshdan yetmish yoshgacha bo‘lgan polvonlar keng maydonda o‘zaro kuch sinashdi. Kuchi, chaqqon va epchilligi bilan raqiblaridan ustun kelgan polvonlar turli sovrinlar bilan taqdirlandi.

Eng sara, kuchli polvonlar bahsida Surxondaryo viloyatining Termiz tumanida yashaydigan Samijon Ubaydullaev mutloq g‘olib bo‘ldi va festivalning oliy sovrini «Neksiya-Ravon» engil avtomashinasini qo‘lga kiritdi.

Shubhasiz, folklor qo‘shiqlari ming yillardan buyon xalq og‘zaki ijodida saqlanib kelayotganligi “Boysun bahori” kabi festivallarida ishtirok etadigan iste’dod egalarini kashf etib, yoshlarimizni qadimiy san’atimizga bo‘lgan qiziqishlarini yanada ortishiga xizmat qiladi. Zero, yurt bahori, tiriklik bahori, qalb bahori, Boysun bahori kabi mangulikka daxldordir.

Xalfachilik san’atiga bag‘ishlangan Respublika ko‘rik tanlovi.
O‘zbekiston Respublikasi madaniyat vazirligi tashabbusi bilan tashkil etilgan

“Xalfachilik: an’ana va zamonaviylik jihatlari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani hamda “Xalfa qo‘shiqlari” ijrochilarining birinchi Respublika ko‘rik-tanlovi nomoddiy madaniy meros borasidagi muhim yangiliklardan biri bo‘ldi. Chunki, shu kunga qadar hali xalfalar ishtirokida ilmiy-amaliy anjuman va ko‘rik tanlov tashkil etilmagan edi.

Ushbu madaniy ma’rifiy tadbir O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 7 oktyabr “ 2010-2020 yillarda nomoddiy madaniy meros ob’ektlarini muhofaza qilish, asrash, targ‘ib qilish va ulardan foydalanish Davlat dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 222-son qarorining ijrosini ta’minlash maqsadida o‘tkazildi.

Aytish joizki, Xiva shahridagi Xorazm Ma’mun akademiyasida o‘tkazilgan ilmiy-amaliy anjuman juda yuqori saviyada uyushtirildi. Anjuman ishida respublikamizning yetuk olimlari, sohaga doir ilmiy-tadqiqot ishlari olib borayotgan tajribali mutaxassislar, viloyat hokimligi hamda madaniyat tizimi mutassaddilari, shuningdek, xalfalar va ommaviy axborot vositalari xodimlari ishtirok etdi.

Anjumanda yosh avlodni vatanparvarlik va milliy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, ularning dunyoqarashi va tafakkurini yuksaltirishda nomoddiy madaniy meros namunalaridan keng foydalanishga alohida e’tibor qaratilayotgani ta’kidlandi. Xalqimiz azaldan tinchlik-osoyishtalikni, do‘stlik va hamjihatlikni yuksak qadrlab kelgan. Ajdodlarimizdan meros qolgan urf-odatlar, bayram va marosimlar, kuy-qo‘shiqlarda ham xalqimizga xos bunday yuksak fazilatlar yaqqol namoyon bo‘ladi.

Ma’ruzalar davomida xalfachilik san’atini kelajak avlodga asl ijrochilik an’anasini yo‘qotmagan holda yetkazish uchun Respublika madaniyat muassasalari faoliyatini tashkil etish ilmiy-metodika markazi tomonidan zarur qo‘llanmalar yaratish, o‘quv seminarlari, anjumanlar va boshqa tadbirlar tashkil etish, Navro‘z bayramlari uchun xalfalarning alohida dasturlarini tayyorlash, ushbu betakror san’atdan xalqimizni yanada ko‘proq bahramand etish maqsadida maxsus chora-

tadbirlar rejasi ishlab chiqilganligi, xalfalarning repertuarlarini o‘rganish bo‘yicha ijodiy-tashkiliy ishlar yo‘lga qo‘yilganligi to‘g‘risida ham so‘z yuritildi.

Umuman olganda, anjuman kutilganidan ham ziyoda o‘tdi. Xalfachilik san’atini yanada rivojlantirish yo‘lida tashlangan birinchi qadam muvaffaqiyatli bo‘ldi. Bu mubolag‘a emas, albatta.

Ichan qal’ada xalfa qo‘shiqlari ijrochilarining birinchi respublika ko‘rik-tanlovi bo‘lib o‘tdi. Unda xalfachilik san’atini ardoqlab kelayotgan juda ko‘plab iste’dod egalari o‘z mahoratlarini namoyish etdilar. Taniqli san’atkorlardan iborat hakamlar hay’ati ishtirokchilarning chiqishlarini baholab bordi.

Tashkilotchilar g‘oliblarni munosib taqdirladi. O‘zbek xalq qo‘shiqlarini o‘rganish va targ‘ib qilish yoshlarimizni milliy qadriyatlar, urf-odat va an’analarga hurmat ruhida tarbiyalashda muhim o‘rin tutadi. Bu borada mustaqillik yillarida mamlakatimizda salmoqli ishlar amalga oshirildi. Xivada tashkil etilgan “Xalfachilik: an’ana va zamonaviylik jihatlari” mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman hamda xalfa qo‘shiqlari ijrochilarining birinchi respublika ko‘rik-tanlovi ham ana shunday maqsadlar ro‘yobiga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Ipak va zirovarlar festivali. Buxoroni yirik turistik markazga aylantirish, milliy hunarmandchiligimiz va san’atimizni jahonda keng targ‘ib qilish maqsadi ko‘zlangan mazkur tadbir 2017 yil 26 may kuni ertalab festival ishtirokchilarining Ark qal’asi oldidagi Registon maydonidan Eski shahar ko‘chalari bo‘ylab tantanali yurishi bilan boshlanadi. “Ipak va ziravorlar” festivalining ochilish marosimi va badiiy jamoalarning chiqishlari Nodirdevonbegi madrasasi oldidagi maydonda bo‘lib o‘tdi.

Labihovuz majmuasidan Toqi Zargarongacha cho‘zilgan rastalarda mahalliy va xorijiy hunarmandlar tayyorlagan xalq amaliy san’ati buyumlari hamda ziravorlarning savdo-yarmarkasi 3 kun davom etdi. Festival doirasida usta hunarmandlarning kulolchilik, miniatyura, mis kandakorligi, kashtachilik, gilamboflik, zardo‘zlik, xattotlik va boshqa san’at turlari bo‘yicha mahorat maktabi namoyishlari o‘tkazildi.

Ko'kaldosh madrasasida taniqli modelerlar va yosh dizaynerlar tomonidan "O'zbek ipagi — dunyo nigohida" shou-dasturi tashkil etiladi. Festival davomida Poyi Kalon majmuida o'zbek jang san'ati ustalarining ko'rgazmali chiqishlari va milliy kurash musobaqalari, boshqa maydonlarda esa xalq o'yinlari o'tkazildi. Gavkushon madrasasida esa mohir oshpazlarning "Palov sayli" ko'rik-tanlovi bo'lib o'tadi. Bahouddin Naqshband yodgorlik majmui markazida "Buxoro turistik erkin iqtisodiy hududini yaratish imkoniyatlari va rivojlanish istiqbollari" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya tashkil etildi.

Festivalning madaniy dasturi ham rang-barang tadbirlarga boy. Folklor-etnografik dastalarining chiqishlari shaharning bir necha maydonida o'tkazilsa, Buxoro san'at kolleji va viloyat musiqali drama teatri xalq cholg'u asboblari orkestri Nodirdevonbegi xonaqosi oldidagi maydonda konsert dasturini namoyish etildi. O'zbek milliy filmlari namoyishi nafaqat buxoroliklar, balki chet ellik sayyohlarda ham katta qiziqish uyg'otdi.

Bu yil festivalning tantanali yopilish marosimi, g'oliblarni taqdirlash hamda viloyatimiz va respublikamiz poytaxti taniqli san'atkorlari gala-konserti qadimiy Ark qal'asi oldidagi maydonda 5 ming nafar tomoshabin va mehmonlar ishtirokida o'tkazildi. Xullas, an'anaviy XVI "Ipak va ziravorlar" xalqaro festivali amaliy san'at ustalari hamda turizm sohasi mutaxassislari, minglab buxoroliklar va sayyohlar uchun katta bayramga aylandi.

"Eng yaxshi ekspeditsiya va ilmiy tadqiqotchi" hamda **"Eng yaxshi foto va video lavhalar"** ko'rik-tanlovlari. Mazkur tanlovlar madaniyat vazirligi tomonidan tashkil etilgan bo'lib, uni o'tkazishdan maqsad mahallalarda nomoddiy madaniy merosni saqlash va uni targ'ib etishda jonbozlik ko'rsatib kelayotgan yurtdoshlarimizni aniqlash, ularni ma'naviy va moddiy jihatdan rag'batlantirish, ushbu ibratli faoliyatni yoshlar o'rtasida targ'ib qilish, takomillashtirish, ommalashtirishdan iborat.

Ushbu ko'rik tanlovlar mutloq innovatsion shalkda tashkil etilgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Buni tanlovda ishtirok etish va hujjatlarni taqdim etish shartlaridan ham bilib olish qiyin emas.

Nizomiga muvofiq ushbu ko'rik tanlovlar bir bosqichda tashkil etilib, quyidagi hujjatlar talab etiladi:

1. Nomzod to'g'risida umumiy ma'lumotnoma.
2. Tanlangan yo'nalish bo'yicha uyushtirilgan ekspeditsiya hamda ilmiy tadqiqot ishlari to'g'risida batafsil yozma ma'lumot.
3. Faoliyatga oid foto va videomateriallar.
4. Nomzod faoliyatining OAVda yoritilganligini tasdiqlovchi bosma, audio va videomateriallar.

Eng qulay tomoni tanlov ishtirokchilari barcha zaruriy hujjat va materiallarni Madaniyat vazirligining Respublika madaniyat muassasalari faoliyatini tashkil etish ilmiy-metodik markazining elektron pochta manziliga yuboriladi. Kelib tushgan ishlar tashkiliy qo'mita tomonidan hujjat va materiallarning butligi va tanlov shartlariga mosligi nuqtai nazaridan saralanib, soha bo'yicha tan olingan bilim va tajribaga ega bo'lgan kamida 5 nafar ekspertdan tashkil topgan Hay'at muhokamasiga havola qilinadi. Hay'at a'zolari kelib tushgan ishlarning mavzuga to'g'ri kelishi, tanlov shartlariga mosligi va boshqa jihatlarni yakka tartibda ko'rib chiqadilar hamda alohida xulosalarini beradilar. Mazkur xulosalar asosida g'oliblar aniqlanadi.

Ushbu ko'rik tanlovlarda soha mutaxassislari, olimlar, professor-o'qituvchilar, talabalar, mustaqil tadqiqotchilar ishtirok etishlari mumkin. Va ishtirokchilar tanlovda uydan chiqmasadan, ortiqcha vaqt sarflamasdan internet orqali xujjatlarini jo'natib, qatnashish imkoniyatiga ega.

2016 yilda tashkil etilgan ikkala ko'rik tanlov natijasiga ko'ra 20 nafar yurdoshlarimiz g'olib deb topilib, Madaniyat vazirligi hamda hamkor

tashkilotlarning maxsus diplom va qimmatbaho sovg'alari bilan taqdirlandi. Bu esa ushbu soha vakillarining yanada shijoatli va fidoyi bo'lishlariga turtki bo'ldi.

O'ylaymizki, bu kabi innovatsion tanlov va festivallarning ko'proq o'tkazilishi nomoddiy madaniy merosni yanada kengroq ko'lamda ommalashtirish va targ'ib etilishiga zamin yaratadi.

XULOSA

Insoniyat o'z vujudiga quvvat beruvchi moddiy oziqlar bilan bir qatorda o'z ruhiga kuch beruvchi ma'naviy ozuqa ham olib turishi zarur. Ma'naviy ozuqani inson nafaqat tabiat go'zalligidan, balki o'z qo'li bilan yaratgan madaniy meroslardan ham oladi. Inson ma'naviy kuvvatni adabiyot (ilmiy manbalar, she'riy va nasriy asarlar, xalq og'zaki ijodi), san'at (musiqa, teatr, kino, rangtasvir, amaliy san'at kabilar), milliy marosim, bayramlardan oladi. Bugungi kunda yurtimizda mavjud nomoddiy madaniy meros namunalari ham ayni shu ezgu ishga xizmat qiladi.

Ushbu bebaho merosni kelajak avlodga bekami ko'st yetkazish, uni avaylab asrash, targ'ib va muhofaza qilish uchun barchamiz birdek mas'ul bo'lib, bu yo'lda soha fidoyisi sifatida jonbozlik ko'rsatishimiz kerak. Tadqiqotimizda keltirilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, nomoddiy madaniy merosni targ'ib qilishda madaniy-ma'rifiy muassasalar birlamchi ahamiyat kasb etar ekan. Shu nuqtai nazardan mazkur muassasalar faoliyatini yaxshilash, qo'llab quvvatlash, ular uchun keng

imkoniyatlar yaratish hamda nomoddiy madaniy meros borasidagi sayi-harakatlarini rag'batlantirish ushbu meros umrining bardavom bo'lishini kafolatlaydi.

Fikrimizcha, nomoddiy madaniy merosni targ'ib qilishda davlat va nodavlat madaniy-ma'rifiy muassasalari birdek mas'uldirlar. Ammo, kuzatishlarimiz shuni ko'rsatmoqdaki, ba'zi hollarda bu boradagi ishlarni nodavlat tashkilotlar aniq va sifatli olib bormoqda.

Bugungi kunda Madaniyat vazirligi tizimida 37 ta professional teatr, 76 ta respublika muzeyi, 894 ta madaniyat va aholi dam olish markazlari, 225 ta madaniyat va istirohat bog'lari, 301 ta bolalar musiqa va san'at maktablari hamda san'at va madaniyat kollejlari, 394 ta unvonga ega folklor jamolari, 70 ta havaskorlik xalq jamoalari faoliyat yuritmoqda. Ushbu muassasalar nomoddiy madaniy merosni targ'ib qilishdagi asosiy kuchlardan biridir. Shuning uchun ham ularda targ'ibotni kuchaytirish maqsadga muvofiqdir. Bu borada mazkur muassasalar moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va yanada rivojlantirish talab etiladi.

Nomoddiy madaniy merosimizni targ'ib etishdagi xalqaro aloqalarni yangi bosqichga ko'tarishni davrning o'zi taqozo etmoqda. To'g'ri bu yo'nalishda bir qator xayrli ishlar amalga oshirilgan. Xususan, YUNESKO nomoddiy madaniy meroslar ro'xatiga O'zbekiston nomidan 6 ta namuna kiritilgan bo'lib, yettinchisi "Xorazm raqsi – lazgi" joriy yilda ko'rib chiqiladi. Fikrimizcha bu yutuqlar bilan cheklanib qolmasligimiz kerak. Nomoddiy madaniy meros borasidagi jahon grantlarida ishtirok etib, durdona merosimizning dunyo miqyosida targ'ib etilishiga erishishimiz zarur.

Olib borgan tadqiqotimiz yuzasidan quyidagi takliflarni bildiramiz:

- Bugungi axborot texnologiyalar talabidan kelib, barcha madaniy-ma'rifiy muassasalarga mo'ljallangan nomoddiy madaniy meros targ'ibotiga qaratilgan multimedia tayyorlash;
- Internet rivojlanayotgan bir davrda yoshlar o'rtasida nomoddiy madaniy merosni targ'ib etishga doir mobil ilova yaratish;
- Nomoddiy madaniy merosimizni dunyo miqyosida targ'ib qilish uchun turistlarga mo'ljallangan turli tillardagi albom va brashyuralar chop etish;
- Yurtimizdagi nomoddiy madaniy meros namunalarini o'zida saqlovchi va yetkazuvchilarni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash maqsadida ko'krak nishonini ta'sis etish (Madaniyat vazirligi tomonidan);
- Nomoddiy madaniy merosga bag'ishlangan ilmiy ekspeditsiyalarda talabalar ishtirok etishini ta'minlash.

Bundan tashqari, bizdagi ma'lumotlarga ko'ra nomoddiy madaniy merosni targ'ib qiluvchi asosiy kuch – 894 ta madaniyat va aholi dam olish markazlarida ushbu merosga doir atigi 5 ta to'garak faoliyat olib bormoqda. Bu judda katta fojia. Mazkur Markazlar imkoniyatlaridan to'g'ri foydalangan holda ularda nomoddiy madaniy merosni targ'ib qilishni keng ko'lamda yo'lga qo'yish lozim.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, keyingi paytlarda muhtaram Prezidentimiz SH.Mirziyoev tashabbusi va sayi-harakatlari bilan madaniyat va san'at sohasiga juda katta e'tibor qaratilib, o'ziga xos g'amxo'rlik ko'rsatilmoqda. Shuningdek, sohaga doir ko'plab qaror va farmonlar imzolanib, soha rivoji uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Endilikda bizdan faqat sitqidildan ishlash, soha taraqqiyotiga hissa qo'shish, madaniy meroslarimizni targ'ib etish va uni kelajak avlodlarga yetkazish kabi vazifalarni ado etish talab etilyapti xolos. Shunday ekan ushbu sohaning barcha fidoyilarini bu xayrli ishda kamarbasta bolishlariga undab qolamiz.

G L O S S A R I Y

Arbob - (arab.- janoblar; xo‘jayinlar, amaldorlar.) Fan, madaniyat, san’at sohasida yoki davlat ishida o‘z faoliyati bilan tanilgan, shu sohada o‘zini ko‘rsatgan shaxs. *Jamoat arbobi. Madaniyat arbobi. San’at arbobi.*

Askiya - (arab. (birl.)- ziyraklar, zakiylar) O‘zbek xalq og‘zaki ijodining bir janri bo‘lib, unda so‘z o‘yiniga, qochiriqlarga asoslangan holda ikki yoki undan ortiq kishi yoki taraflar musobaqalashadi. Askiya, odatda, to‘y- tomosha, sayl, ziyofat kabi yig‘inlarda o‘tkaziladi.

Badiha - (arab. – ichki his- sezgi; topqirlik, hozirjavoblik) ad. Biror voqea , hodisa munosabati bilan to‘satdan, birdaniga ijod qilingan, aytilgan she’r yoki she’riy parcha, musiqa asari yoxud qo‘shiq; ekspromt.

Badiiy - (arab.- badiiyatga, nafis san'atga oid; go'zal, ajoyib) 1. Voqelikni nafis san'at vositalari, usullari, obrazlari orqali ifoda etuvchi; tasvirlovchi. *Badiiy asar. Badiiy film.*

2. Badiiylikka tegishli, mansub. Badiiy mahorat. Badiiy tasvir. Badiiy tafakkur.

Baynalmilal - (arab. – millatlar o'rtasidagi, millatlararo) tar.esk. Qo'shiq va musiqa nomi. *Keyin zalda baynalmilal kuyi yangradi.* SH. Xolmirzaev. So'nmas o't.

Bozigar - (fors. – mohir o'yinchi, artist) ayn. bozinger.

Bazm - (fors. – dabdabali ziyofat) Musiqa o'yinlar bilan o'tkaziladigan ziyofat, to'y, o'tirish; o'yin kulgi kechasi.

Voiz - (a. targ'ib qiluvchi, va'zxon) Nasihatomuz yoki tashviqiy nutq so'zlovchi, notiq.

Daf - (a. – doira, childirma.) Chertib chalinadigan, doira shaklidagi yog'och gardishga xom teri qoplab yasalgan musiqa asbobi; childirma, doira.

Hofiz - (arab. –saqlovchi, muhofaza qiluvchi, yodda saqlovchi, Qur'onni yodlab kishi) Usta, etuk ashulachi.

Iyd - (arab. – bayram, hayit) Diniy bayram; hayit. Iydlari muborak!

Latifa - (arab. – nazokat, noziklik; oqilona so'z; anekdot) Kulgili voqea-hodisa haqidagi kichik hikoya.

Madaniy - (arab.- shaharlik; madinalik, Madinaga xos) 1. Madaniyatga oid, madaniyat, ilm-ma'rifat bilan bog'liq, madaniyat sohasidagi.

2. Madaniyatli, madaniyatni egallagan; madaniyatga erishgan, madaniyat talablariga javob beradigan.

Madaniyat - (arab. - sivilizatsiya) 1. Jamiyatning ishlab chiqarish, ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy hayotida qo'lga kiritgan yutuqlari majmui.

2. Biror ijtimoiy guruh, sinf yoki xalqning ma'lum davrda qo'lga kiritgan shunday yutuqlari darajasi.

3. O'qimishlilik, ta'lim-tarbiya ko'rganlik, ziyolilik, ma'rifat.

4. Madaniyatli shaxs talablariga javob beruvchi sharoit.

Madhiya - (arab.- maqtov qo'shig'i; qasida) kt. 1. Biror shaxs, narsa, voqeani maqtab yozilgan, o'qilgan she'r yoki nutq; madh, maqtov.

2. Tantanali qo'shiq; davlat yoki siyosiy sinf birligining alomati bo'lgan tantanali she'riy-musiqiy asar.

Marosim - (arab. – urf-odatlar, udum) Diniy yoki an'anaviy urf-odatlar munosabati bilan o'tkaziladigan tadbir, yig'in.

2. Tantanalar o'tkaziladigan rasmiy yig'in.

Marsiya - (arab. – motam she'ri) Biror shaxsning vafoti munosabati bilan uning xotirasiga bag'ishlab yozilgan motam she'ri; Sharq she'riyatidagi adabiy janrlardan biri.

Haykal - (arab. Juda ulkan, katta; ibodatxona, ulkan bino) 1. Kishi yoki hayvon gavdasining gips, tosh, metall, yog'och va boshqa shu kabi qattiq materiallardan yo'nib, o'yib yasalgan tasviri.

2. Biror shaxs yoki voqea xotirasini abadiylashtirish uchun yasalgan arxitektura va haykaltaroshlik inshooti; yodgorlik.

Mashshoq - (a.- o'qituvchi, ustoz; usta) Xalq cholg'u asboblariida musiqa asbobi chaluvchi sozanda.

Ma'raka - (a.- jang, urush; yig'in) To'y, tomosha va shu kabi munosabat bilan bo'ladigan yig'in, marosim.

Maqom - (a. – joy, o'rin; tovushlar qatori, kuy (ohang) tuzilishi) Musulmon sharqi musiqasida musiqiy ohang, kuy yo'li, tartibi, shakli va janri.

Madaniy meros ob'ektlari — moddiy va nomoddiy madaniy meros ob'ektlari;

Moddiy madaniy meros ob'ektlari — tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o'zgacha madaniy qimmatga ega bo'lgan ansambllar, diqqatga sazovor joylar va yodgorliklar;

Nomoddiy madaniy meros ob'ektlari — tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o'zgacha madaniy qimmatga ega bo'lgan urf-odatlar, xalq ijodiyoti (so'z, raqs, musiqa, tomosha san'ati), shuningdek, ular hamda xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'ati bilan bog'liq bilimlar, ko'nikmalar, asbob-anjomlar, artefaktlar, madaniy makonlar.

Mumtoz - (a.- a'lo darajali, mashhur; imtiyozli; saralangan) Muayyan millat va jahon fani, san'ati, adabiyatida muhim o'rin tutadigan, millatning shon-shuhrati va faxri hisoblangan; klassik.

Musavvir - (a. – rassom; tasvirga, suratga oluvchi) Turli tasvirlar ishlovchi, rasm chizuvchi ijodkor.

Musiqa - (a. < yun. Musiqa – muzalar san'ati) 1. Inson hissiy kechinmalari, fikrlari, tasavvur doirasini musiqiy tovushlar izchilligi yoki majmui vositasida aks ettiruvchi san'at turi.

2. Shu san'atning cholg'u bilan ijro etiladigan asari; kuy.

3. *ko'chma*. Yoqimli, ohangdor ovoz(lar).

Muqallid - (a. - taqlidchi) O'zbek an'anaviy teatrining janri; shu janr ijrochisi (Muqallid shaklidagi tomoshalarda qush va hayvonlarga taqlid qilingan, hayotdagi ba'zi kishilar xulq-atvori, qiziq voqealar kulgili tarzda aks ettirilgan).

Nog'ora - (a. – kichik nog'ora) Tuvaksimon sopolga teri qoplab yasalgan va ikkita cho'p bilan urib chalinadigan bir juft musiqa asbobi.

Notiq – (a.- so'zlovchi gapiruvchi; fikrlovchi; diktor) Nutq so'zlovchi; gapga chechan, gapga usta, so'zamol.

Kashta - (fors.- ekilgan, urug' qadalgan, ishlov berilgan.) 1. Igna bilan tikib tushirilgan gul, rasm, chiziq va shu kabilar.

2. Gul, rasm, chiziq va shu kabilar tikilgan mato.

Oraz – (a. – tashqi ko'rinish; yuz, yonoq) poet. 1. O'n ikki maqom tizimidagi sho'ba nomi.

2. Surnay yo'llaridan biri.

Raqqos - (a.- o'yinga, raqsga tushuvchi) Raqsga tushuvchi san'atkor erkak; o'yinchi.

Raqqosa – (a.- o'yinga tushuvchi ayol, balerina) raqqos ayol.

Raqs – (a. o'yin, o'yinga tushish va unga moslab yozilgan musiqa) Raqqos(a)ning garmonik harakati va holatlari, plastik ifodaviyligi, yuz imo-ishoralari va boshqa orqali obraz yaratishgan.

San'at -(a. ish, mehnat, mahorat; kasb-hunar) Ijtimoiy madaniyatning estetik zavq beruvchi, musiqa, musavvirlik, haykaltaroshlik kabi voqealikni badiiy obrazlar vositasida aks ettiruvchi har bir ayrim sohasi.

San'atkor-(a.+f.-san'at bilan shug'ullanuvchi, ma'lum bir san'at egasi; hunarmand) San'at sohibi, can'atning biror sohasini egallagan ijodkor; san'atchi.

Sahna-(a. tomosha ko‘rsatiladigan joy) Tomosha ko‘rsatiladigan joyda, teatr, kinoteatr, konsert zali va shu kabi tomoshaxonalarda spektakl, kino qo‘yiladigan baland joy.

Tamaddun - (a. madaniyat; sivilizatsiya)

Tomosha - (a. harakatlanish; aylanib yurish, sayr qilish) Ommaviy ravishda namoyish etish uchun tayyorlangan sahna asari, ko‘rsatuv.

Tomoshabin-(a. tomosha ko‘ruvchi(qiluvchi)) Biror tomosha ko‘rish uchun kelgan shaxs, tomosha ko‘ruvchi.

Ud - (a. daraxt, poya, novda; torli, chertma musiqa asbobi nomi) Katta noksimon kosaxonali, kalta dastali, ko‘p torli, chertib chalinadigan musiqa asbobi.

Ushshoq - (a. oshiq) “Shashmaqom”ning ikkinchi maqomlar guruhiga oid kuy va shu kuydagi ashulaning nomi.

Shashmaqom - (f. olti+maqom) O‘zbek va tojik xalqlari musiqiy merosida markaziy o‘rin tutgan maqomlar turkumi; parda, ohang, usul, shakl, uslub kabi vositalar bilan o‘zaro uzviy bog‘langan, Buzruk, Navo, Dugoh, Segoh, Rost, Iroq maqomlaridan tashkil topgan mumtoz kuy va ashulalar majmui.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Prezident asarlari

1. SH.M.Mirziyoev. Erkin va farovon, demokratik o‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.-T.:O‘zbekiston, 2016.
2. SHavkat Mirziyoevning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqidan. 2016 yil 14 dekabr, Toshkent shahri

3. SH.M.Mirziyoev. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 25 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasidan. 2017 yil 7 dekabr, Toshkent shahri
4. Prezident SHavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasidan. 2017 yil 22 dekabr, Toshkent shahri
5. Prezident SHavkat Mirziyoevning O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma’ruzasidan. 2017 yil 3 avgust, Toshkent shahri
6. SH.M.Mirziyoev. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqidan. 2017 yil 19 sentyabr, AQSH Nyu-York
7. SH.M.Mirziyoev. “Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo‘lidagi hamkorlik” mavzusidagi xalqaro konferensiyada so‘zlagan nutqidan. 2017 yil 10 noyabr, Samarqand shahri.
8. SH.M.Mirziyoev.Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak.–T.: O‘zbekiston, 2017.

II. Me’yoriy-huquqiy hujjatlar

1. Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo‘yicha xalqaro konvensiya, 2003 yi 17 oktyabr Parij
2. O‘zbekiston Respublikasi qonuni “Madaniy meros ob’ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida” (2001 yil)
3. Vazirlar Mahkamasining “2010-2020 yillarda nomoddiy madaniy meros ob’ektlarini muhofaza qilish, asrash, targ‘ib qilish va ulardan foydalanish Davlat dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 222-son qarori (2010 yil 7 oktyabr)
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Nomoddiy madaniy meros muhofazasiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” 47-son qarori (2011 yil 23 fevral)

5. “2017-2021 yillar O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” Prezident Farmoni

III. Asosiy adabiyotlar

2. Qoraboev U. O‘zbekiston bayramlari. – T.: “O‘qituvchi”, 1991.
3. Qoraboev U. O‘zbek xalqi bayramlari. – T.: “O‘qituvchi”, 1991.
4. Sattorov M. O‘zbek udumlari. – T.: Fan, 1993.
5. Qoraboev U. Madaniyat masalalari. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat nashri, 2009.
6. Nomoddiy madaniy merosni ta’lim tizimiga tatbiq etish. Respublika ilmiy seminari materiallari. –T.: “Navro‘z”, 2015 yil.
7. O‘zbekiston nomoddiy madaniy merosi ro‘yxati. – T.: “Kamin-Press”, “Adabiyot Uchqunlari” MChJ, 2016.
8. Toshmatov O‘., Isaqulova N., Axmedova O., Qo‘ldoshev SH., Isaqov Z. Tabiat va koinotga oid bilim va urf-odatlar. T.: “Tafakkur”, 2017.

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti Xalq ijodiyoti fakulteti
“Madaniyat va san’at muassasalarini tashkil etish va boshqarish” ta’lim yo‘nalishi
bitiruvchisi Volodina Veronika Vladimirovnaning “Madaniy-ma’rifiy
muassasalarda nomoddiy-madaniy meros targ‘iboti” mavzusidagi bitiruv
malakaviy ishiga

RAHBAR XULOSASI

Respublikamiz iqtisodiyotining barcha sohalarida olib borilayotgan islohatlar ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy sohalarining barchasida insonlarning yaxshi yashashlari uchun, sog‘lom turmush tarzini yaratish, ularning moddiy va ma’naviy bilimlarini oshirishga qaratilgandir.

Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq ko‘p asrlar davomida xalqimiz tomonidan yaratib kelingan milliy madaniyatimizni asrab – avaylash va uni yanada rivojlantirish masalalariga ham alohida e’tibor qaratib kelmoqda. Xususan, ushbu sohani yanada rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan bir qator qonun va qarorlar qabul qilindi. “Nomoddiy madaniy meros muhofazasi to‘g‘risida”gi xalqaro Konvensiyaga qo‘shilishimiz, “Madaniy meros ob‘ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni, Vazirlar Mahkamasining “2010-2020 yillarda nomoddiy madaniy meros ob‘ektlarini muhofaza qilish, asrash, targ‘ib qilish va ulardan foydalanish Davlat dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 222-son qarori hamda “Nomoddiy madaniy meros muhofazasiga oid normativ huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 47-son qarorining qabul qilinganligi buning yorqin misoli.

Nomoddiy madaniy meros tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o‘zgacha madaniy qimmatga ega bo‘lgan urf-odatlar, xalq ijodiyoti (so‘z, raqs, musiqa, tomosha san’ati), shuningdek, xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san’ati bilan bog‘liq bilimlar, ko‘nikmalar, asbob-anjomlar, artefaktlar, madaniy makonlardan tashkil topgan”

Ushbu bebaho merosni kelajak avlodga bekami ko‘st yetkazish, uni avaylab asrash, targ‘ib va muhofaza qilish uchun barchamiz birdek mas’ul bo‘lib, bu yo‘lda soha fidoyisi sifatida jonbozlik ko‘rsatishimiz kerak. Tadqiqotimizda keltirilgan tahlillar

**O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti "Xalqijodiyoti" fakulteti
"Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish va boshqarish" ta'lim
yo'nalishi bitiruvchisi Volodina Veronika Vladimirovnaning "Madaniy
ma'rifiy muassasalarda nomoddiy madaniy meros targ'iboti" mavzusida
tayyorlagan bitiruv malakaviy ishiga ichki**

TAQRIZ

Bitiruvchi Volodina Veronika Vladimirovna bitiruv malakaviy ishini "Madaniy ma'rifiy muassasalarda nomoddiy madaniy meros targ'iboti" mavzusida bajargan bo'lib, ish 72 betda – Kirish, Asosiy qism, Xulosa, Glossariy, Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatiga Ilovalar qismlarida bayon qilingan.

Respublikamizda ota-bobolarimizdan meros bo'lib, avloddan avlodga o'tib kelayotgan xalq ijodiyoti namunalarini, ya'ni nomoddiy madaniy meros boyliklarini asrash, ularning asrlar davomida sayqallanib, zamonaviy hayot bilan hosil qilgan uyg'unligini to'laliligicha saqlagan holda kelajak avlodga topshirish hozirgi kunda dolzarb masalalardan biri bo'lib, bu borada bir qancha ilmiy va amaliy ishlar olib borilmoqda.

Ayniqsa, butun dunyoni globallashuv jarayoni qamrab olgan bir vaqtda, xalqlarning o'z an'analari, urf-odatlarini, udumlari-yu milliyliklarini saqlab qolishlariga bo'lgan harakatlari har qachongidan ham yuqori sur'atlarda amalga oshirilmoqda va bu, o'z navbatida, nomoddiy madaniy meros namunalariga bo'lgan e'tiborni yanada kuchaytirmoqda. O'zbekistonda ham qator tadbirlar olib borilmoqda va bu borada respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan madaniy-ma'rifiy muassasalar imkoniyatlaridan keng ko'lamda foydalanish maqsadga muvofiq.

Ushbu bitiruv malakaviy ishida nomoddiy madaniy meros tushunchasi va uning namoyon bo'lish sohalari yoritib berilgan, O'zbekistondagi nomoddiy madaniy meros bilan shug'ullanuvchi madaniy-ma'rifiy muassasalar, nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, asrash va targ'ib qilishga qaratilgan me'yoriy-

huquqiy hujjatlar haqida ma'lumotlar keltirilgan hamda nomoddiy madaniy merosni targ'ib qilishda foydalanilayotgan innovatsion yondashuvlar asosiy qismda tahlil qilinib xulosa chiqarilgan.

Volodina Veronika Vladimirovnaning "Madaniy ma'rifiy muassasalarda nomoddiy madaniy meros targ'iboti" mavzusidagi tadqiqot ishi mustaqil yozilgan bo'lib, u ilmiy va amaliy ahamiyatga egadir. Mazkur ishni himoyaga tavsiya etaman.

Taqrizchi:




S.X. Davlatov

Q'z DSMI dotsenti, fil.fanlari nomzodi

**Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти “Халқ ижодиёти”
факультети “Маданият ва санъат муассасаларини ташкил этиш ва бошқариш”
таълим йўналиши битирувчиси Володина Вероника Владимировнанинг
“Маданий маърифий муассасаларда номоддий маданий мерос тарғиботи”
мавзусида тайёрлаган битирув малакавий ишига ташқи**

ТАҚРИЗ

Хеч кимга сир эмаски, бугунги кунда бутун дунё глобаллашув жараёнини бошдан кечирмоқда. Дунё олимлари томонидан глобаллашув-миллий чегараларнинг ювилиб кетишига сабаб бўлиши таъкидланмоқда. Шу боисдан дунё миқёсида маданиятларнинг умумлашуви – оломон маданияти хавф солиб турган бир пайтда урф-одатларимиз, маросим ва удумларимиз ҳақида сўз юритиш ҳозирги кунда долзарб масала бўлиб турибди. Шунингдек, ҳозирда номоддий маданий мерос атамаси билан қўлланилаётган халқ ижодиёти намуналарини асраб-авайлаб, келажак авлодга етказиш халкимиз, айниқса, ёшлар орасида ушбу меросни оммалаштириш ва тарғиб этиш олдимизда турган муҳим вазифалардандир. Бу борада республикамызда фаолият олиб бораётган маданий-маърифий муассасалар имкониятларидан кенг қўламда фойдаланиш мақсадга мувофиқ.

Володина Верониканинг “Маданий маърифий муассасаларда номоддий маданий мерос” мавзусидаги битирув малакавий иши айни шу долзарб масалаларга бағишланган бўлиб, тадқиқот иши кириш, 2 боб, 4 та параграф, хулоса, глоссарий, илова ҳамда адабиётлар рўйхатидан иборат.

Жумладан, биринчи боб “Номоддий маданий мерос тушунчаси ва маданий-маърифий муассасалар фаолиятининг ўзига хос хусусиятлари” деб номланиб, ушбу бобда номоддий маданий мерос тушунчаси ва унинг намоён бўлиш соҳалари ҳамда Ўзбекистонда номоддий маданий мерос билан шуғулланувчи маданий-маърифий муассасалар тўғрисидаги таҳлилий маълумотлар келтирилган.

“Номоддий маданий меросни тарғиб қилишнинг ҳуқуқий асослари ва истиқболлари” деб, номланган иккинчи бобда эса номоддий маданий меросни муҳофаза қилиш, асраш ва тарғиб қилишга қаратилган меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлар ҳамда номоддий маданий меросни тарғиб қилишда инновацион ёндашувлар борасидаги илмий-назарий фикрлар далиллар асосида очиб берилган.

“Маданий маърифий муассасаларда номоддий маданий мерос тарғиботи” мавзусида тайёрланган ушбу битирув малакавий ишида баъзи бир жузъий камчиликлар учрайди, лекин бу тадқиқот ишининг мазмунига таъсир қилмайди. Битирув малакавий иши олий таълим муассасаларида битирув малакавий ишини тайёрлаш тартиби тўғрисидаги Низом талабларига тўлиқ мос келади.

Юқоридаги фикр-мулоҳазаларни инобатга олиб, мазкур битирув малакавий ишини химояга тавсия этаман.

Республика маданият муассасалари фаолиятини
ташкил этиш илмий методик маркази
директори ўринбосари




В.Уразматов

